



UDK: 316.334.3(575.1)

Dilafroz ATAMURATOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: atamuratovadilafroz@gmail.com

UrDU dotsenti, t.f.n. Matyakubova M.M. taqrizi asosida

ISSUES OF SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY AND PARTICIPATION OF YOUTH IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Annotation

In recent years, many researchers have been carried out on the socio-political activity of young people, their participation in the activities of government bodies, their place in education, culture and other areas. In this article is analyzed the forms of youth participation in the decision-making process on issues relating to themselves and the local community, the principles of youth participation in Uzbekistan and the direction of youth participation.

Key words: Participation, social and political activity, principles of youth participation, directions of youth participation, forms of youth participation.

ВОПРОСЫ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖИ В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В последние годы проведено множество исследований общественной-политической активности молодежи, ее участия в деятельности органов управления, ее места в образовании, культуре и других сферах. В статье анализируются формы участия молодежи в процессе принятия решений по вопросам, касающимся их самих и местного сообщества, принципы участия молодежи в Узбекистане и направления участия молодежи.

Ключевые слова: Участие, общественно-политическая деятельность, принципы участия молодежи, направления участия молодежи, формы участия молодежи.

O'ZBEKISTON TARIXIDA YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ISHTIROKI MASALALARI

Annotatsiya

So'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning boshqaruv institutlari faoliyatida ishtiroki, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalardagi o'rni bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Maqolada yoshlarning o'ziga va mahalliy hamjamiyatga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishining shakllari, O'zbekistonda yoshlar ishtiroki tamoyillari hamda yoshlar ishtiroki yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ishtirok, ijtimoiy-siyosiy faollik, yoshlar ishtiroki tamoyillari, yoshlar ishtiroki yo'nalishlari, yoshlar ishtiroki shakllari.


Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar jarayonida yoshlarning ishtirokini kuchaytirish, bu o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsad emas, balki yoshlar hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish va fuqarolik jamiyati qurilishining bir yo'lidir. So'nggi yillarda yoshlarni turli darajadagi – xalqaro, mintaqaviy, milliy va mahalliy faoliyat sohalariga jalb etishga qaratilgan tashabbuslar tobora ko'payib bormoqda.

Yevropalik tadqiqotchi olim Rodjer Xart ("Ishtirok etish zinapoyasi" deb nomlangan konsepsiya muallifi) ishtirok etish – bu fuqaroning asosiy huquqi, deb hisoblaydi, chunki u fuqaro bo'lish nimani anglatishini va qanday bo'lishni o'rganish imkoniyatini beradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Turli xalqaro tashkilotlar ta'rifiga ko'ra, yoshlar ishtiroki deganda yoshlarning ijtimoiy

hayotga qo'shilish huquqi va mahalliy darajada kundalik hayotda mas'uliyat va majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi, shuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik tarzda ta'sir ko'rsatish huquqi tushuniladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-tahliliy adabiyotlarga ko'ra, mahalliy vaziyat, resurslar, ehtiyojlar va tajribaga qarab, yoshlarning ishtiroki yoki mas'uliyat darajasi turlicha bo'ladi. Masalan, Rodjer Xart bolalar va yoshlarning loyihalar, tashkilotlar yoki jamoalardagi ishtirokining turli darajalarini aks ettiruvchi "Bolalar ishtiroki zinapoyasi" modelini taklif qiladi. U har biri zinapoyaning bir pog'onasiga to'g'ri keladigan yoshlarni jalb qilish darajasining 8 ta bosqichini belgilaydi:

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ishtiroki zinatpoyasi

Mazkur "Yoshlar ishtiroki zinatpoyasi" modeli o'z jamoalarida amalga oshirilayotgan loyihalar yoki tashabbuslarni inkor etishni xohlovchi amaliyotchilar uchun foydali vosita bo'lishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, yoshlarning ijtimoiy hayotga jalb qilish darajasi aniq vaziyatga, erishish lozim bo'lgan maqsadning turiga, mavjud tajribaga va hokazolarga bevosita bog'liq. Ba'zan turli bosqichlar o'rtasida aniq chegaralar yo'qligi yoki ayrim loyihalarning murakkabligi tufayli loyihada ishtirok etish darajasini muayyan darajada aniqlash juda qiyin. Vaqt o'tishi bilan ishtirok etish darajasi o'zgarishi mumkin [5].

Yoshlar ishtiroki sohalarini ham quyidagi yo'nalishlarga taqsimlash lozim:

-iqtisodiy ishtirok – bandlik va umuman mehnat sohasini nazarda tutadi, iqtisodiy rivojlanish, qashshoqlikni bartaraf etish, jamiyat, hudud yoki guruh sifatida yoshlar uchun barqaror iqtisodiy vaziyatni yaratish bilan bog'liq ishtirok;

-siyosiy ishtirok – hokimiyat, hukumat, davlat siyosati, hokimiyatni amalga oshirish, turli darajadagi resurslarni taqsimlashga ta'sir qilishni anglatuvchi ishtirok;

-ijtimoiy ishtirok – mahalliy hamjamiyat hayoti, mahalliy muammolar va chiqariqlarni bartaraf etish omillari bilan bog'liq ishtirok;

madaniy ishtirok – san'at va ijodning turli shakllarini (tasviriy san'at, musiqa, kino, raqs va boshqalar) o'z ichiga oladigan ishtirok shakli [3].

Yoshlar mahalliy jamoalarning nisbatan katta qismini tashkil qiladi. Agar mahalliy miqyosda qabul qilingan qarorlar turli guruhlarning hayotiga ta'sir etsa, unda bu guruhlarning barchasi o'z fikrlarini bildirishlari va ularning manfaatlarini hisobga olishlari uchun yakuniy natijaga ta'sir qilishlari kerak. Binobarin, qaror qabul qilish jarayoniga yoshlar jalb qilinsa, ularning fikr-mulohazalari va ehtiyojlarini inobatga olish ko'proq bo'ladi.

An'anaga ko'ra, yoshlar qaror qabul qilish jarayonlarida kamdan-kam ishtirok etadilar, chunki kattalar odatda uni boshqaradi va nazorat qiladi. Biroq, yoshlar manfaatlariga daxldor bo'lgan mahalliy muammolarni birgalikda muhokama qilish yangi istiqbollari, yangi g'oyalarni rozaga chiqarishi

mumkin. Bu zamonaviy jamiyatlar rivojlanishiga ko'proq mos keladigan muammolarni an'anaviy ko'rib chiqishdan tashqari chiqadigan yangi yo'llar va usullarni izlashga hissa qo'shishi mumkin.

Shularni inobatga olib, O'zbekistonda yoshlar ishtiroki tamoyillarini quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin:

Ishtirok etish turli chaqiriqlarga asoslangan bo'lishi lozim. Bu yerda muammo yoshlarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lishi va ular uchun qiziqarli bo'lishi kerak bo'lgan masaladir;

Ishtirok etish imkoniyatlarga asoslanishi kerak. Ishtirok etish uchun yoshlar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Shu sababli, loyihalar yoki tashabbuslar yoshlarning imkoniyatlariga mos bo'lishi va etishmayotgan ko'nikma va imkoniyatlarni loyiha orqali egallashini ta'minlashi kerak;

Ishtirok etish o'zaro aloqadorlikka asoslanishi zarur. Yoshlar jamiyatning ajralmas bir "qismi" sifatida his qilishlari va odamlar, jamoalar, tendentsiyalar, harakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini bilishlari lozim. Bu shuni anglatadiki, ular qo'llab-quvvatlovchi qolmasligi va guruh yoki muassasaga tayanishi mumkinligiga ishonch hosil qilishni istaydi (qo'llab-quvvatlash va kerakli joy olish nuqtai nazaridan ham ularga ishonish);

Kelib chiqishi, millati, dini va boshqalardan qat'i nazar, barcha yoshlar uchun mavjud bo'lishi. Ishtirok etish imkoniyatini shaxsning kelib chiqishi, dini yoki e'tiqodi kabi omillarga qarab cheklash mumkin emas;

Ixtiyoriylik. Demak, ishtirok etish ixtiyoriy, yoshlar o'z tanloviga qarab qatnashmaslik huquqiga ham ega. Shuningdek, ular ishtirok etish hajmi va shaklini tanlashlari mumkin;

Yoshlarning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'langanlik. Yoshlar uchun muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib, ularning o'zlarini qiziqtirgan masalalarni hal qilish jarayoniga jalb etish: qandaydir ijobiy o'zgarishlarga erishish, muammolar echimini topish, yangi ko'nikma va malakalarni egallash, qiziqish va xobbilarini rivojlantirish hisoblanadi. Shunday qilib, ular o'z hayotlari va jamiyat hayoti uchun mas'ul ekanini tushunadilar;

Baholash. Jamiyatning har bir yosh fuqarosi jamiyatda o'z hissassi muhimligini bilishi va unga baho bera olishi lozim (garchi bu hissa kichik bo'lsa ham);

Jarayonga jalb etilgan barcha manfaatdor tomonlar uchun foydalilik. Mazmunli ishtirok etish yoshlar, kattalar, tashkilotlar va jamoalarga foyda keltiradi, chunki bu yo'l bilan turli sohalarida ijobiy o'zgarishlarga erishiladi – shaxsiy rivojlanish, ishlash darajasi, jamiyatdagi o'zgarishlar va boshqalar [9].

Ishtirok etish shakllari jihatidan xilma-xillik. Barcha yoshlar uchun maqbul bo'lgan ishtirok etishning yagona shakli yo'q. Shu bois, yoshlarga o'zlari uchun dolzarb va qiziqarliroq deb o'ylagan narsalarni tanlashlari uchun turli shakllarda ishtirok etishni taklif qilish muhimdir;

Kerakli resurslar bilan ta'minlanganlik. Agar zarur resurslar mavjud bo'lmasa, ishtirok etish imkoniyati juda cheklangan va ba'zilar uchun hatto imkonsiz bo'ladi. Vaqt, inson resurslari, moliya, nou-xau, transport va boshqalar kabi turli xil resurslar taqdim etilishi kerak;

Kattalar va yoshlar o'rtasidagi haqiqiy hamkorlikka asoslanishi. Hamkorlik umid va tashvishlarni muhokama qilish, rollarni belgilash, vakolat va mas'uliyatni taqsimlashni anglatadi. Hamkorlik har doim ham faoliyat va mas'uliyatning barcha sohalarini teng taqsimlashni anglatmaydi. Bu umumiy istaklar, ehtiyojlar va mumkin bo'lgan hissalar asosida ushbu hududlarni ajratishni anglatadi;

Shaffoflik. Jarayonda ishtirok qilayotgan barcha tomonlar ishtirok etish maqsadlari va uning chegaralarini bilishlari muhim. Shuningdek, yoshlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, nimani o'zgartirish mumkin va nima mumkin emasligini aniq tushunish lozim;

Faqat uslub sifatida emas, balki tarixiy tamoyil sifatida o'rnatilishi. Ishtirok etish faqat bitta metod yoki jalb qilish shakli emas. Bu murakkab tushuncha bo'lib, turli sohalar, darajalar va o'lchamlarni qamrab oladi. Shuning uchun u tashkilotlar yoki jamoalarda rejalashtirilgan turli siyosiy-tarixiy yo'nalishlar va strategiyalarga nisbatan kesishgan bo'lishi lozim.

Ishtirok zavq bahsh etishi kerak. Umuman olganda, agar ish yoqimli bo'lsa, odamlar (yoshidan qat'iy nazar) ko'proq ixtiyoriy faoliyatda qatnashadilar. Rohatlanish, albatta, o'yin-kulgini anglatmaydi - bu shunchaki uni bajarishdan qoniqish yoki quvonch keltiradigan voqeelikdir.

Yoshlarning o'ziga va mahalliy hamjamiyatga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishining ko'plab shakllari mavjud. Zamonaviy

jamiyatlarda yoshlar ishtirokining eng keng tarqalgan shakl va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-ko'ngilli ishlash (volontyorlik faoliyati);

-turli norasmiy ta'lim tadbirlarida qatnashish;

-tengdoshlarni o'qitish – yoshlarni o'z tengdoshlarini o'qitishga jalb qilish (masalan, salomatlikni mustahkamlash dasturlari, ta'lim kampaniyalari va boshqalar);

tashkilot (klub)da faol ishtirok etish va faoliyatning muayyan sohalarini uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

yoshlar kengashlari, parlamentlar, forumlar, boshqaruvlar va boshqa tuzilmalar xalqaro, milliy, mintaqaviy yoki mahalliy hokimiyat organlari, maktablar, klublar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalar doirasida qarorlar qabul qilishda ishtirok etishning an'anaviy usuli hisoblanadi;

-maslahatlashuvlar (konsultatsiya) – qaror qabul qilish jarayonida muayyan muammo bo'yicha o'z tashvishlarini ifodalash va ularning talablarini ko'rsatish uchun foydalaniladi;

-loyihalar va tadbirlarda yoshlar ishtirokining turli (uyushgan va uyushmagan) darajalari;

-har xil turdagi ijtimoiy kompaniyalar; siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, manfaatdor guruhlariga a'zolik;

-saylovda ishtirok etish (saylash va saylanish).

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda yoshlarimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etish madaniyati va mahoratini shakllantirib borish lozim bo'ladi. Bu jarayonda esa,

- mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy munosabatlar tizimini doimiy ravishda monitoring qilib borish;

- ularning fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish, biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shaxsiy va professional rivojlanishi uchun ko'mak beradigan turli ijtimoiy-psixologik, huquqiy, axborot va konsultativ xizmatlar ko'rsatish;

- turli funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy xizmatlar markazlarini shakllantirish va O'zbekiston yoshlariga zamonaviy davrga xos bo'lgan yangi innovatsion bilimlar berish zarur.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda ko'p yillardan buyon pishib yetilgan hamda yoshlarning qimmatbaho inson kapitaliga aylanishiga to'sqinlik qilayotgan kompleks muammolar mavjud. Jumladan, bu borada oliy va kasbiy ta'lim sifatini yaxshilash, ishsizlik bilan samarali kurashish hamda aholi daromadlarini oshirish, erta nikoh, ajrimlar, katta va yosh avlod o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuviga o'xshash o'tkir ijtimoiy muammolarni bartaraf etish ayni davrning dolzarb vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR

1. Абдукаримов Г., Холова Э., Мавлонов Ж., Пармонов Ф., Сеитов. А Фуқаролик жамияти институтлари салоҳиятини мустаҳкамлаш, жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ва ижтимоий фаолигини оширишга оид Ўзбекистон тажрибаси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2017. –184 б.
2. Бозоров Д. ва бошқалар. Жаҳон тажрибасида фуқаролик жамияти институтлари фаолияти. Фуқаролик жамияти. Ўқув қўлланма.–Т.: “ЎзМУ” нашриёти, 2016. – 550 б.
3. Индикаторы молодежной политики: <http://www.youthforum.org>
4. Жукова Т.В. Информационное обеспечение и работа с молодежью: методические рекомендации / сост. Т.В. Жукова. – Оренбург: Издательский центр ОГАУ, 2013. –52 с.
5. Марк Тейлор, Джо Цеккон. Европейское портфолио для молодежных лидеров имолодежных работников. Совет Европы. 2006, 51 с.
6. Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы. Отчёт, Представительство Детского Фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Узбекистане. –Т., 2020. 151 с.
7. Roger A. Hart, Children's Participation: The Theory and Practice of Involving Young Citizens in Community Development and Environmental Care. ISBN 9781853833229, Published January 1, 1997 by Routledge 220 Pages
8. Участие молодежи в принятии решений: Программа “Организация работы с молодежью на пространстве СНГ”. – М., 2018.
9. Шарков Ф.И. Коммуникология: основы теории коммуникации: учебник / Ф.И. Шарков. – М.: Дашков и К, 2009 // ЭБС «Книга фонд». – С. 123.
10. Ўзбекистон ёшлари: муаммо ва истиқболлар // <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-yoshlari-muammo-va-istiqbollar>



Nosirjon JO'RABOYEV,
Toshkent Davlat transport universiteti dotsenti, t.f.n
E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com

TDTTrU professori, A.A. Dadasheva taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF OUR DOMESTIC PRESS ABOUT TWO "UCHQUN" ("SPARK")

Annotation

The article tells about the magazine "Uchkun", published by the Bukhara youth during the years of the formation of the Bukhara People's Soviet Republic, and another magazine "Uchkun", published in those years in Moscow by the publishing house "Sharq" in the Uzbek language.

Key words: "Yosh buxoroliklar", Jadidlar, "Uchkun" (Bukhara), "Uchkun" (Moskva), press, magazine, "Darvesh" (Nazir Turakulov), "Totli" (Laziz Azizzoda), Ziyoy Said, Abdurauf Fitrat, Muhammad Sayyid Akhroriy, Abdulmumin Sattoriy, Sadridin Ayniy.

ИЗ ИСТОРИИ НАШЕЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ПЕЧАТИ О ДВУХ "УЧКУН" («ИСКРА»)

Аннотация

В статье рассказывается об журнале «Учкун», издаваемом бухарской молодежью в годы образования Бухарской Народной Советской Республики, и другом журнале «Учкун», издаваемом в те годы в Москве издательством «Шарк» на узбекском языке.

Ключевые слова: «Ёш бухороликлар», Жадидлар, «Учкун» (Бухоро), «Учкун» (Москва), пресса, журнал, «Дарвеш» (Назир Тўрақулов), «Тотли» (Лазиз Азиззода), Зия Саид, Абдурауф Фитрат, Мухаммад Саййид Ахрари, Абдулмунин Саттари, Садриддин Айни.

MILLIY MATBUOTIMIZ TARIXIDAN IKKI "UCHQUN" HAQIDA

Annotatsiya

Maqolada o'tgan asr boshlarida buxorolik jadidlar tomonidan Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati tashkil topgan yillarda nashr etilgan "Uchqun" va Moskvadagi "Sharq nashriyoti" tomonidan o'sha yillarda o'zbek tilida chiqib turgan yana bir "Uchqun" jurnallari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: "Yosh buxoroliklar", Jadidlar, "Uchqun" (Buxoro), "Uchqun" (Moskva), matbuot, jurnal, "Darvesh" (Nazir To'raqulov), "Totli" (Laziz Azizzoda), Ziyoy Said, Abdurauf Fitrat, Muhammad Sayyid Ahroriy, Abdulmo'min Sattoriy, Sadridin Ayniy.

Kirish. Buxoro amirligi tugatilishi arafasida (1920 y.) Toshkentda "Yosh buxoroliklar" tomonidan "Uchqun" nomli gazeta nashr etilganligi ma'lum. Ammo o'sha vaqtlarda Buxoroda xuddi shunday nomda jurnal ham chiqib turganki, bu haqda juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. "Uchqun" jurnali 1923-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning atigi ikki soni (mart, aprel) chiqqan, xolos. Jaridaning birinchi sahifasida: "Uchqun" jurnali Buxoro shahrida o'zbek tilida oyda bir marotaba chiqarilaturg'on siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va adabiy jurnaldur. Buxoro xalq sho'rolari jumhuriyati xalq maorifi nazoratining nashr afkoridur", deb qayd etilgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jurnalning ko'rinishi unchalik katta emas. Qo'qon qog'oziga mix bosmada (arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida) chop etilgan. Materiallari – "Maorif ishlari", "Ta'lim va tarbiya", "Tarjimai xol", "Adabiyot" va "Iqtisodiy ishlar" ruknlari ostida berilgan. O'ttiz ikki betdan iborat bo'lgan oynomaning so'nggi sahifasida esa "Muharriri tahririya" degan yozuv bor. Uning dastlabki sahifasidan (gap "Uchqun"ning ikkinchi soni haqida bormoqda – J.N.) 1923- yilda bo'lib o'tgan I Buxoro xalq maorifi qurultoyida Fitrat tomonidan qilingan ma'ruza o'rin olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, Abdurauf Fitrat 1923-yilda Buxoro xalq sho'ro jumhuriyatining maorif xalq noziri bo'lib ishlagan edi. Ma'ruzada Buxoro xalq maorifi oldida turgan dolzarb masalalar – yangi maktablar tashkil etish, xotin-qizlar maktablarini ko'paytirish, jumhuriyatda yashovchi turkmanlarni o'qitish kabilar xususida fikr bayon qilingan. Shuningdek, u Buxoro jumhuriyatida tojik, o'zbek, turkman maktablarini ochish va ko'paytirish to'g'risida yozib,

ayni vaqtda: "Ruscha til maktabi ham shunday muhimdur... Bizning eng fojiali holimiz, ruscha bilmasligimizdadur", - deb ta'kidlaydi [2].

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, A.Fitrat rus tili mavqeini o'sha davrlardayoq chuqur idrok eta olgan adib-jurnalist edi. Bu esa, o'z navbatida, uning ustidan qo'zg'atilgan jinoyat ishidagi "millatchi" deb yozilgan ko'plab sahifalar asossiz bo'lganligini yana bir karra isbot qiladi.

"Uchqun"da maorif ishlariga oid yana bir maqola bor. U Buxoro matbuot va nashriyot ishlarining tashkilotchilaridan biri Muhammad Sayyid Ahroriyning ta'lim va tarbiyaning amaliy hamda nazariy mohiyati va bola tarbiyasiga bag'ishlangan "Ta'lim va tarbiyaning ta'rifi" maqolasidir. Qizig'i shundaki, bulardan tashqari, bevosita maorif masalasiga tegishli maqolalar oynomada boshqa uchramaydi. Shunga qaramay, turli mavzulardagi qolgan maqolalar jurnalning maorif nashri sifatidagi qadrini sira pasaytirmaydi. Misol uchun, Abdulmo'min Sattoriyning "Boqirg'on", Sadridin Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi" deb nomlangan ancha yirik maqolasi (to'g'rirog'i, bu S.Ayniyning 1920-yilda yozilgan "Buxoro inqilobi tarixiga doir materiallar" asaridan boblardir. Chamasi, jurnalning tahrir hay'ati bu asarni to'la bosmoqchi bo'lgan ko'rinadiki, uning so'ngiga "Bitmadi" deb yozib qo'yilgan – J.N.) bilvosita adabiyot va tarixga taalluqlidir.

XX asrning 20-yillarida o'zbek milliy vaqtili matbuoti sahifalarida Botu, Elbek, Usmon Nosir va boshqalarning ko'plab asarlari e'lon qilingan. Ularning ayrimlari ko'pchilikka ma'lum emas. Masalan, biz fikr yuritayotgan jurnalda Cho'lponning "Erkinlik istagi" va Fitratning "Qor" she'rlari

berilgan. Jurnalidan yana bir adibimiz – G'ulom Zafariyning "Gulyor" dostoni ham o'r in olgan. Gulyor va Tursunning beg'ubor muhabbatidan madh etuvchi bu asar, shoir tavalludi munosabati bilan yana matbuotimiz yuzini ko'rar, degan umiddamiz.

Bundan tashqari, jurnal sahifasida "Iqtisodiyot ishlari" rukni ostida Mustafo Seyfulmulk imzosi bilan "Yana aqcha masalasi", Mahmud Suboyning "Tursunboy" (ertak), ruschadan tarjima qilingan "Ziyrak xotun" kabi materiallari ham joy olgan. "Uchqun" haqidagi qisqacha fikrimizga yakun yasalar ekanimiz, beixtiyor milliy matbuotimiz fidoiylaridan biri Ziyu Saidning "O'zbek matbuoti tarixiga materiallar"(1870-1927) asarida mazkur nashr xususida: "Bu jurnal to'g'risida durust ma'lumot ola bilmadik", deb yozgan so'zlarini esladik [3]. Zero, biz ham o'quvchiga jurnal to'g'risida to'la ma'lumot bera oldik, degan da'vodan yiroqmiz. Negaki, qayd etilgan ma'lumotlar "Uchqun"ning qo'limizdagi mavjuli ikkinchi sonidan olindi. Uning birinchi soni haqida esa kelgusida alohida izlanishlar olib borilsa kerak, deb o'ylaymiz.

Endi, ikkinchi bir "Uchqun" haqida fikr yuritsak. O'tgan asrning 20-yillari boshlarida Moskvadan Sho'ro Sharqi o'lkalariga quvonchli bir xushxabar tarqalgan edi. Milliy ishlar xalq komissarligi qoshida "Markaziy Sharq nashriyoti" (1920-yil, oktabr) tuzilganligi to'g'risidagi bu xabarni qozoq, tatar, boshqird, ozar, o'zbek xalqlari qizg'in kutib oldi.

Tez orada nashriyot qoshida bir qator sharq tillarida ro'znoma va oynomalar nashr etila boshlandi. Keksa alloma sharqshunoslarimizdan Laziz Azizzodaning yozishiga qaraganda, "Markaziy Sharq Nashriyoti"da bitta ro'znoma ("Ishchi" – tatar-boshqird tilida) va oltita oynoma ("Temur qozoq"- qozoq tilida, "Qizil Sharq" – ozar tilida. Qolgan uchtasi tatar va usmonli turkcha tilda) chop etilgan [4]. 1923-yilning aprelida o'zbek o'quvchilari nashriyotning Turkiston bo'limi tahrir hay'ati tomonidan chiqarilgan "Uchqun" oynomasining dastlabki soni bilan tanishishga muayassar bo'ldilar.

Biz mazkur oynoma haqida milliy o'zbek matbuoti tarixida g'oyat kam ma'lumot saqlanib qolganligini nazarda tutib, u xususida baholi qudrat fikr yuritishga qaror qildik.

"Uchqun" haqida kekse jurnalistlarimizdan Ziyu Said o'zining "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar. 1870-1927-y.y." asarida quyidagilarni yozgan edi: "Bu jurnal 1923-yil aprel oyida Moskvada chiqdi. Muharrir – hay'ati tahririya, noshiri – Milliy ishlar komissarligi qoshidagi "Markaziy Sharq" nashriyoti. Har oyda bir marta chiqadurg'on, pullik, nusxasi birinchi sonida 400 ko'rsatilgan. O'zi siyosiy, iqtisodiy va adabiy mujalla bo'lib, maqolalarning ko'pi Sharqqa bag'ishlangan. Tili yengil emas, imlosi o'rta. Yozuvchilari: Darvesh, Laziz Azizzoda, Zinnatulla Novshervon, Haqgo'y, X.Musayev, Shokir Sulaymon va Zakiy Najib" [5].

Hozirgacha mazkur oynoma haqidagi ma'lumotlar shulardangina iborat edi, xolos. Ammo, oynoma sahifalarini varaqlab chiqib, bunga quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin bo'ldi. Darhaqiqat, jurnal pullik bo'lib, bahosi 5 so'm deb ko'rsatilgan. Mundarijasi juda boy, 23 nomda berilgan turli mavzulardagi materiallar 96 sahifani tashkil etadi. Ular mazmuniga ko'ra, "Siyosat va iqtisod", "Tarix", "Ijtimoiyot va tanqid", "Adabiyot" ruknlari ostida berilgan.

Oynoma mazmunan baynalmilal ahamiyatga ega. Undagi ikki maqola ("Loyd Jorj va Sharq masalasi", "Bo'g'ozlar masalasi va Angliya") o'sha vaqtda "Markaziy Sharq nashriyoti"ning Ozarbayjon bo'limi tomonidan nashr etilib turgan "Qizil Sharq" jurnalidan olingan. Shuningdek, qrim-tatar afsonalaridan ("Payg'ambarga xat"), usmonli turk, rus adabiyotidan namunalari o'zbek tiliga tarjima etib bosilgan.

Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, chamasi "Uchqun" tahririyatida mahalliy ahamiyatga molik materiallar yetarli bo'lmagan va shu bois tahrir hay'ati nashriyot tomonidan chiqarilib turgan boshqa sharq tillaridagi oynamalardan ayrim maqolalarni tarjima qilib, ko'chirib bosishga majbur

bo'lgan ko'rinadi. Biroq, oynoma sahifalarini o'rganish natijasida tahrir hay'ati tomonidan bu taqchillikni kelajakda bartaraf etish rejalashtirilganini anglab olish qiyin bo'lmadi. Chunonchi, "Uchqun" ning so'nggi sahifasidagi "Boshqarmadan javoblar" da shunday deyilgan: "Qimmatli yo'ldoshimiz Sadriddin Ayniyga! 1923-yil yanvar tarixlik maktubingiz tegdi. Kelg'usida yozaturg'on qimmatdor asarlaringizni "Sharq" nashriyotiga muntazam yuborilib turmog'i matlubdur. Xususan, asarlaringizni mumkin jarajada nafis, tasvirotining mukammal bo'lmog'i jihatdan "Tarixi amiron mang'it" tarjima etilsun. "Buxoro jallodlari"ga oid barcha rasmlar darhol yuborilsin"(6).

Darvoqe, "Uchqun" ning dastlabki sonida rasmlar yo'q. Lekin oynoma xodimlari bu haqda o'quvchidan uzr so'rab, "so'nggi sonlari albatta rasmlik bo'lub chiqadur", deb va'da beradi [7]. Shunga qaramay, oynomadagi aksariyat yirik maqolalar mahalliy mualliflar qalamiga mansub. Bu o'rinda Haqgo'yning eron inqilobchisi Shayx Muhammad Xiyoboniyga, Laziz Azizzodaning arab tarixi va madaniyatiga, X.Musayevning Xiva inqilobiy harakati tarixiga bag'ishlangan maqollalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Oynomadagi Sharqqa oid materiallarning katta qismini Turkiya mavzusi tashkil etadi. Bu bejiz emas, albatta. Turkiya ayni davrda o'z tarqdiridagi g'oyat og'ir damlarni boshidan kechirmoqda edi. Turkiya bilan Gretsiya o'rtasidagi urush tugagach, Lozannada 1922-yil noyabrda 1923-fevralgacha va 1923-yil 23-aprelidan iyuligacha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda asosan, sulh va bo'g'ozlar masalasi muhokama qilindi. Ayrim davlatlar Turkiyaning mushkul ahvolda qolganligidan foydalanib, unga og'ir shartlar qo'yishga harakat qildilar. Sho'ro delegatsiyasi konferensiyada Turkiyaning bo'g'ozlar ustidan suverenitetini himoya qilib chiqdi. Bu mavzuda o'sha vaqtlarda o'zbek matbuotida ko'plab siyosiy-publististik maqolalar e'lon qilingan edi.

Xususan, "Uchqun" da bosilgan Darvesh (Nazir To'raqulov) ning ana shu mavzudagi "Sharq va umumiy sulh" maqolasi diqqatga sazovordir. Muallif mazkur voqeaning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini yoritishga harakat qilar ekan, turk xalqining ozodlik uchun kurashi misolida mazlum Sharq xalqlarining kelajak taqdirini ko'radi. "Sharq ustida yana qora bulutlar,- deb yozadi u,- o'n besh yildan beri tinim bilmay urushib kelgan turk eli Ovrupo xalqlarining fitnasiga yana qolmoq tahlikasida... Turkiyaning taqdiri Ovrupo inqilobiga va Sharq mazlum xalqlarining ug'onishiga bog'long'on, ya'ni, turk xalqi istiqbolini muhofaza etmak uchun bir yoqdan, Sharq ila bog'lanish zarur. Biz o'ylaymizki, tarixning uzil-kesil soati kelg'onda Sharqning mazlum mehnatkashlari Ovrupo ishchilari ila ittifoqda markazga chiqarlar. Ul soat, albatta, keladi"[8].

Binobarin, yangi tashkil etilgan nashriyotda barcha ishlar har doim ham ko'ngildagidek bo'lmagan. Bu haqda mazkur jurnalda "Totli" taxallusi ositida bosilgan "Moskvada musulmon nashriyoti" nomli maqolada to'liq ma'lumot berilgan. Xususan, mavjud ahvol haqida maqola muallifi Laziz Azizzoda ("Totli" taxallusi unga tegishli – J.N.) shunday deb yozgan edi: "Uchqun"da ishlaguvchi yo'q, aytarli darajada oz. Nashriyot tomonidan chiqarilib, bostirilib turg'on asarlarga yetarlik darajada kerak naborshik (harf teruvchi), kerak harf bo'lsin yetishmaydi. So'nggi kunlarda ishonchlik bir o'rtoqdan olg'on ma'lumotga qarag'onda, Qozondagi Tatariston matbaa shirkatida 15 talab naborshiklar ishsiz yotolar emish. Shunday ham nashriyot ishlarining o'z ustiga olg'on "Markaziy Sharq nashriyoti" ishning chorasig'a kirishib, Qozonda ishsiz yotg'on martab (harf teruvchi) lar) ila harflarni oldirishg'a harakat qilsa, ko'b yaxshi bo'lur edi"[9].

Afsuski, nashriyot ishidagi bu kamchiliklar tez orada hal qilinmaganidan tashqari, 1924-yil kommunistik partiya tashabbusi bilan bog'liq tadbir – O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishining o'tkazilishi va oqibatda bir butun ko'hna Turkistonni parchalab yuborishning nihoyasiga yetkazilishi,

endi, markazda na Milliy xalq komissarligini va na "Markaziy Sharq nashriyot"ini saqlab turishga hojat qoldirmadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, chekka milliy o'l-ka xalqlarining quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Ular, aslida, markazdagi milliy nashrlar Sho'rolarning Sharqdagi siyosatini targ'ib va tashviq etish maqsadida tashkil etilganligini hali

to'la tushinib yetmaslaridan burun, bu ishlar ana shu tariqa yakun topdi. "Uchqun" ning ikkinchi soni ham dunyo yuzini ko'rmadi. Ammo, u, Moskvada nashr etilgan o'zbek tilidagi dastlabki (ayni vaqtda oxirgi) oynoma sifatida matubotimiz tarixida qoldi.

ADABIYOTLAR

1. "Uchqun", 1923-yil, Buxoro, aprel, 2-son, 1-bet.
2. O'sha joyda. 5-bet.
3. Ziyoy Sayid. Tanlangan asarlar (O'zbek matbuoti tarixiga materiallar. 1870-1927 y.y.) – Toshkent, 1974-yil, 90-bet.
4. "Uchqun", 1923-yil, Moskva, aprel, 1-son, 87-89-betlar.
5. Ziyoy Sayid. Tanlangan asarlar (O'zbek matbuoti tarixiga materiallar. 1870-1927 y.y.) – Toshkent, 1974-yil, 90-bet.
6. "Uchqun", 1923-yil, Moskva, aprel, 1-son, 96-bet.
7. O'sha joyda. 96-bet.
8. O'sha joyda. 6-bet.
9. O'sha joyda. 88-bet.
10. Jo'raboyev N. Y., & Sayfullayev, B. D. O. G. L. (2021). Ko'hna va navqiron Toshkent bozorlari. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 83-86).
11. Сайфуллаев Б.Д.Ў.(2022). Ўзбекистон ва Ҳиндистон: Олий таълим соҳасида алоқаларнинг ривожланиш тенденциялари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 595-601.
12. Sayfullayev B.D. (2022). Development of Bilateral Political Relations between Uzbekistan and India. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 54-56.
13. Sayfullayev B.D (2021, November). From the history of cultural relations between Uzbekistan and india. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 57-60).
14. Sayfullayev B.D., & Sayfullayev, B. (2020). О научном исследовании двусторонних отношений Узбекистана и Индии. *Sharqshunoslik*, 3(3), 139-144.



UDK:94:636.933.2(575.151)

Abdisattor QOSIMOV,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: abdisattorq@gmail.com

TerDU professori, t.f.d S.N.Tursunov taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARI O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINING SAMARADORLIGI: NATIJALAR VA MUAMMOLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilinishi, fermer xo'jaliklari tomonidan chorvachilik mahsulotlarini davlatga yetkazib berish miqdorining oshib borishi, aholi chorva mollariga pullik xizmat ko'rsatadigan zoovetpunktlar tashkil etish va ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasi yuklatilishi, qo'ychilik sohasi rivoji, haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fermer, chorvachilik, Qorako'l qo'y, qo'y va echki, veterinariya, naslchilik.

INDEPENDENCE YEARS THE EFFECTIVENESS OF LIVESTOCK PRODUCTS IN UZBEKISTAN: RESULTS AND PROBLEMS

Annotation

This article provides for the adoption of a number of decisions and decrees aimed at supporting farms during the years of independence, an increase in the amount of supply of livestock products to the state by Farms, a zoovetpunk providing paid services to livestock of the population.

Key words: Farmer, livestock, Karakul Sheep, sheep and goat, veterinary, breeding.

ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: РЕЗУЛЬТАТЫ И ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В этой статье рассматривается принятие ряда постановлений и указов, направленных на поддержку хозяйств в годы независимости, увеличение объемов поставок животноводческой продукции фермами государству, зооветпункт, оказывающий населению платные услуги животноводству

Ключевые слова: Фермер, животноводство, Каракулская овца, овца и коза, ветеринария, разведение.

Kirish. Mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida fermer xo'jaliklar soni, ularning yer maydoni, hamda mazkur xo'jaliklar qaramog'idagi chorva mollarining miqdori, qishloq xo'jalik mahsulotlarining yetishtirishdagi ulushi yildan-yilga ortib bordi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fermer xo'jaliklari tomonidan chorvachilik mahsulotlarini davlatga yetkazib berish miqdori ham oshib bordi. Jumladan, 1993-yilda respublikaning barcha fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan 6,9 ming tonna go'shtdan 6,1 ming tonnasi, 42 ming tonna sutdan 38,4 ming tonnasi, 2889 ming dona tuxumdan 2452 ming donasi, shuningdek 1,2 ming tonna jun, 3,7 ming dona qorako'l qo'y terisi va 114,5 tonna asal davlatga sotildi [1].

1993-yil mobaynida dehqon (fermer) xo'jaliklarida 1992-yilga nisbatan qora mollar soni 35,8 ming boshga, shu jumladan, sigirlar 11,9 ming boshga, qo'y va echkilar soni 35,9 ming boshga, parrandalar 2,1 ming boshga ko'paydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, barcha qoramollarning 66 foizi, sigirlarning 65 foizi, qo'y-echkilarning 73 foizi, cho'chqalarining 74 foizi, parrandalarning 84 foizi mustaqil fermerlar ixtiyorida bo'lgan[2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 7-apreldagi "Jamoalar chorvachilik fermalari, dehqon (fermer) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufida bo'lmagan boshqa tuzilmalarga texnik hamda zooveterinariya xizmat ko'rsatish masalalari to'g'risida" gi 174-sonli qarorini amalga oshirish bo'yicha shu yili 4-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining buyrug'i qabul qilindi.

Yangidan tashkil etilayotgan xususiy chorvachilik fermalari, dehqon (fermer) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufida bo'lmagan mulkchilik shaklidagi boshqa tuzilmalarga ko'rsatiladigan xizmatlarni kengaytirish, ularga normal ishlab chiqarish faoliyatlarini uchun shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida tuman davlat veterinariya bo'linmalari huzurida jamoa fermalari mulkidagi, dehqon (fermer) xo'jaliklari va aholi chorva mollariga pullik xizmat ko'rsatadigan zoovetpunktlar tashkil etish va ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi[3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 7-apreldagi qarorini amalga oshirgan holda Qishloq xo'jalik vazirligi tomonidan viloyat qishloq xo'jaligi texnikalari birlashmalarida servis xizmati ko'rsatish bo'yicha bo'limlar tuzilib, tumanlarda 792 ta zooveterinariya punktlari tashkil qilindi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 66 ta, Andijon viloyatida – 36 ta, Buxoroda – 54 ta, Jizzaxda – 60 ta, Qashqadaryoda – 51 ta, Samarqandda – 42 ta, Surxondaryoda – 43 ta, Toshkentda – 86 ta, Farg'onada – 102 ta, Xorazmda – 51 ta zooveterinariya punktlari tashkil qilindi va faoliyat ko'rsata boshladi[4].

Chorva mahsulotlari, jumladan, go'sht va sutga bo'lgan davlat buyurtmasi 1994-yilda to'liq bekor qilingan[5]. Bu xo'jaliklarga o'z mahsulotlarini bozor narxlarida erkin sotish imkonini berardi. Fermerlarning qariyb 50 foizi sut, qariyb 40 foizi qoramol go'shtini davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga – shifoxonalar, bolalar bog'chalari, maktablar, faxriylar uylari va boshqalarga sotar edi. Sotishning yana bir muhim yo'li bozor hisoblanardi.

Ta'kidlash joizki, fermerlik harakati rivojlanishining dastlabki yillarida asosan chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari vujudga kelgan. 1994-yil 1-yanvardagi

O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotiga ko'ra, respublikada 14825 ta dehqon (fermer) xo'jaliklari bo'lib, ulardan 10998 tasi chorvachilik yo'nalishi bo'yicha bo'lgan[6]. Bu esa chorvachilikka istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Ushbu xo'jaliklarida 102,2 ming bosh qoramol, shu jumladan 37,1 ming bosh sigir, 90,1 ming bosh qo'y va echki, 3,5 ming bosh cho'chqa, 1,8 ming bosh ot, 78 bosh tuya, 2,1 ming asalari oilasi 89,4 ming bosh parranda, 1183 bosh nutriya va 1000 bosh quyon parvarish qilingan.

Chorvachilikdagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu ishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda xususiy lashtirilgan fermalarda va dehqon (fermer) xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari hajmlarini ko'paytirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 23- fevralda "Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish, hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy lashtirilgan fermalar mafaatlarni himoya qilish to'g'risida" gi o'z qarorini qabul qildi[7].

"O'zoziqovqatsanoat" konserni, "O'zdonmahsulot" davlat konserni, chorvachilik fermalariga ajratilgan omuxta yem, sheluxa va shrot bilan o'z vaqtida topshirilgan edi. 1994 yil birinchi choragida respublikada 14825 ta dehqon (fermer) xo'jaliklari, shu jumladan 7538 tasi mustaqil, jamoa davlat xo'jaliklari bilan shartnoma asosida 7287 tasi faoliyat ko'rsatgan. Shulardan 30 va undan ortiq shartli bosh chorva mollari bor dehqon (fermer) xo'jaliklari soni – 975 ta, ularda 38577 ta shartli bosh chorva mollari mavjud bo'lgan[8].

Agrar sektori shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini aholini oziq-ovqat, jumladan, chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashga salmoqli hissa qo'shdi. 1994-yilda shaxsiy xonodnlarda respublikadagi jami qoramollarning 70 foizi, qo'y va echkilarning yarmi boqilgan. 1992-1993-yillarda bu xo'jaliklarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi 30 foizdan 44 foizga yetdi. Ularda (1994 yil yakunlariga ko'ra) jami sutning 76 foizi, go'shtning 70 fozi yetishtirilgan[9].

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublika hukumati fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga alohida e'tiborini qaratdi. Natijada, dehqon (fermer) xo'jaliklari soni yildan-yilga ortib bordi. 1994-yilning o'zidagina dehqon (fermer) xo'jaliklarining soni 1,9 baravar ko'payib, yil oxirida esa 25 mingdan ziyodni tashkil qildi. Shulardan 10 mingdan ortiq xo'jalik chorvachilikka ixtisoslashgan edi. Fermer xo'jaliklarida go'sht yetishtirish 3 baravar, sut yetishtirish 2,1 baravar, tuxum yetishtirish 1,3 baravar ko'paydi[10]. Joylarda yildan-yilga zooveterinariya xizmatini yaxshilash bilan bog'liq ishlar samalari tarzda yo'lg'a qo'yildi. Jumladan, 1996-yilda Surxondaryoda esa 3 mln. 311 ming so'mlik 520 ta shartnomalar tuzgan edi. Bundan tashqari aholining shaxsiy

chorva mollariga, dehqon (fermer) xo'jaliklari, xususiy chorva xo'jaliklari va boshqa nodavlat tuzulmalariga dori-darmon yetkazib berish maqsadida veterinariya aptekalari ochilib, ularga xizmat ko'rsatgan.

Surxondaryo viloyatida 1996-yilda jami 37 ta vetdoriixonalar bo'lib, ulardan 19 tasi xususiy va 18 tasi tuman, shahar hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stansiyalariga qarashli edi. Ushbu doriixonalar orqali 848 ming so'mlik veterinariya dori-darmonlari sotilgan[11]. Ushbu yilda Surxondaryo viloyatida 1440 ta fermer xo'jaligi tashkil etilib, ularda 17209 bosh qoramol, shu jumladan 5475 bosh sigir, 20530 bosh qo'y-echki, 21600 bosh parranda, 1482 ta asalari uyasi, 94 bosh ot, 202 bosh cho'chqa bo'lib, 22472 gektar yer maydoni ajratilgan. Ular ixtiyoriga 172 haydov traktori va chopiq traktori, 120 ta pritsep, 12 ta yuk mashinasi berilgan. Fermerlardan Muzrabodlik Yodgorov 14,7 tonna go'sht, 18,9 tonna sut, Termiz tumanidan Xayitov 30 tonna sut, Ochilov 18,5 tonna go'sht davlatga sotishgan[12].

Shu davrga kelib, sohada erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar ham mavjud edi. Jumladan, respublikada faoliyat yuritayotgan 1871 ta shirkat xo'jaliklarining 451 tasida umuman chorva mollarining biror turi ham boqilmayotganligi eng salbiy holatlardan biri edi. Vaholanki, bu davrda chorva mollari parvarish qilinmayotgan molxonalar shirkat xo'jaliklari balansida bo'lib, hamon amortizatsiya ajratmalarini hisoblash davom etmoqda edi.

Xulosa va takliflar. Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- birinchidan, xo'jaliklar mavjud molxonalarda ularni ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqqan holda chorva mollarni asrashga alohida e'tibor berildi;

- ikkinchidan, fermalarni chorva mollari bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmagan holatlarda ularning foydalanilmay yotgan qismini fermer va dehqon xo'jaliklariga uzoq muddatga ijaraga berish yoki umuman sotib yuborildi;

- uchinchidan, chorva mollariga ega bo'lmagan shirkat xo'jaliklarida 100-150 bosh qoramollarni boqadigan oilaviy pudrat shaklidagi ishlab chiqarish xo'jaliklari tashkil qilindi.

2008-yilning boshida respublikada qariyb 10 mingta chorvachilik fermer xo'jaligi va mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi 148 ta chorvachilik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar soni 2007-yilning oxirida 7,5 million bosh, jumladan sigirlar 3,1 qo'y va echkilar soni 12,6 million boshni tashkil qildi. 2007-yilda tirik vaznda 1,2 million tonna go'sht, 5,1 million tonna sut, 22,5 ming tonna jun ishlab chiqarildi[13].

Shu yillarda asosan sut yetishtirish rivojlangan edi. Qo'y-echkilarni parvarish qilish ko'proq Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan edi[14].

ADABIYOTLAR

1. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 1-15 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 233-varaq.
2. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 3-4 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 234-varaq.
3. O'zR QSXV joriy arxivi, O'zR QXV ning 1993-yildagi qaroralari yig'ma jildi. 232-varaq.
4. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 3-4 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 231-varaq.
5. Vazirlar Mahkamasining 13-(1993-yil yanvar), 137-(1993-yil mart), 87-88-(1994-yil fevral-mart) sonli qarorlariga muvofiq barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlariga davlat buyurtmasining asta-sekin kamaytirilishi tadbiri ishlab chiqilgan edi.
6. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 1-15 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 232-233-varaqlar.
7. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlagan nutqi. 1994-yil 18-fevral. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B.63-67.
8. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 3-4 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 238-varaq.
9. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1994-yildagi 3-4 raqamli qarorlari yig'ma jildi. 241-varaq.
10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B. 68.
11. O'zR QSXV joriy arxivi O'zR QXV kollegiyasining 1996-yildagi qarorlari yig'ma jildi.
12. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yaxat, 290-ish, 5-varaq
13. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti.
14. O'zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. Agrar sektorni rivojlantirish tendensiyalari nuqtai nazaridan tahlil. Toshkent, 2010. – B. 67.



Laziza MUXAMADIYEVA,
Navoiy Davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: muxamadiyeva1985@mail.ru

O'zMU professori A.Ermetov taqrizi asosida

РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕЧАТИ В УКРЕПЛЕНИИ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ГАЗЕТЫ "КРАСНЫЙ ФРОНТ")

Аннотация

В статье на примере газеты «Красный фронт» показана роль военных периодических изданий в укреплении советской власти в Туркестане. Также на основе информации из ряда источников разъясняются структурная структура газеты, освещаемые в ней темы, ее место в идеологической и идеологической политике и т.д.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, военные издания, Советская власть, Красная Армия, «Красный фронт», статьи и материалы, фронты.

THE ROLE OF THE MILITARY PRESS IN STRENGTHENING THE SOVIET AUTHORITIES IN TURKEY (BY THE EXAMPLE OF THE NEWSPAPER "RED FRONT")

Annotation

The article shows the role of military periodicals in strengthening Soviet power in Turkestan using the example of the newspaper "Krasny Front". Also, on the basis of information from a number of sources, the structural structure of the newspaper, the topics covered in it, its place in ideological and ideological politics, etc. are explained.

Key words: Turkestan ASSR, military publications, Soviet power, Red Army, "Red Front", articles and materials, fronts.

TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING MUSTAHKAMLANISHIDA HARBIY-DAVRIY NASHRLARNING O'RNI ("КРАСНЫЙ ФРОНТ" ГАЗЕТАСИ MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Turkistonda sovet hokimiyatining mustahkamlanishida harbiy-davriy nashrlarning tutgan o'rni "Красный фронт" gazetasi misolida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, gazetaning tarkibiy tuzilishi, unda yoritib borilgan mavzular, uning g'oyaviy-mafkuraviy siyosatdagi o'rni kabilar qator manbalardagi ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, harbiy nashrlar, sovet hokimiyati, Qizil Armiya, "Красный фронт", maqola va materiallar, frontlar.

Kirish. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'z hukumronligini o'rnatishga harakat qilar ekan bu jarayonda davriy matbuotga, ayniqsa harbiy-davriy nashrlarga jiddiy e'tibor qaratdi.

O'lkada sovet hokimiyatiga qarshi qurashni o'z sahifalarida aks ettirgan dastlabki harbiy nashr "Красноармеец" gazetasi bo'lib, u 1918-yildan chop etila boshlagan. 1919-yildan esa "Красный фронт" va "Горнист", 1920-yildan "Борец за коммунизм", "Пролетарская мысль" kabi front gazetalarini chiqarib boshlagan. 1921-yildan boshlab harbiy nashrlar qatoriga "Красная газета", "Красноармейская газета", "Набат революции", "Еженедельник политработника", 1922-yildan esa "Советское слово", "Скорпион красноармейский" kabi gazetalar qo'shildi. Umuman olganda, O'zbekistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurash davom etgan yillarda bunday gazetalarning soni 20 dan ortiq edi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston o'lkasida bolsheviklarning targ'ibot-tashviqot ishlarida katta o'rin egallagan harbiy nashrlardan biri bo'lgan "Красный фронт" gazetasi 1919-yil may oyining ikkinchi yarmida "Набат" ning o'rni chiqarib qilinib boshlagan. Bu haqda "Красный фронт" gazetasi tahririyatining 1919-yil 28-may 3-sonida: "Набат" gazetasing barcha ishlarini "Красный фронт" qabul qilib oldi" - deb habar berilgan edi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda zamonaviy tarix fanida tan olingan tarixiylik, ob'ektivlik tamoyillari hamda tizimli qiyosiy tahlil, muam-moviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kezi kelganda aytish kerak, "Красный фронт" ni yaratish masalasi tasodifan paydo

bo'lmadi. Bu bolsheviklar tomonidan ancha jiddiy o'ylab qilingan tadbirlardan biri edi. Sababi bundan oldingi harbiy-davriy nashrlar: "Набат революции" va "Красноармеец" gazetalarini endilikda armiya talablarini to'la bajara olmay qoldi. Turkiston o'lkasida ham sovet hokimiyatiga qarshi kurashlar tobora avj ola boshladi. Shu vaziyatda bolshevistik hukumat uchun armiya askarlari bilan qadamma-qadam yurib harbiy to'qnashuvlar va ular bilan bog'liq tafsilotlarni batafsil yoritib bera oladigan gazeta kerak edi.

1919-yil 17-mayda Turkistondagi bolsheviklar tomonidan "Красный фронт" gazetasining nashr qilinishi bo'yicha maxsus majlis bo'lib o'tdi 24-maydan gazeta nashrdan chiqarib boshladi[3]. Bu davrda gazeta tahririyatida K.M.Troyanovskiy muharrir, T.A.Perfilev kotib, Ya.G.Isakovich idora mudiri, S.A.Kreber harf teruvchi, C.N.Blodxina, D.I.Xromovlar muhbir sifatida faoliyat olib borishgan. Tahririyatning o'rta va yuqori bo'g'inida birorta ham mahalliy millat vakillari faoliyat ko'rsatmagan.

"Красный фронт" ham avvalgi davriy nashrlardan ko'rinishi va xususiyati jihatidan uncha katta farq qilmagan. Gazeta haftada uch marotaba ikki yoki uch sahifadan iborat ixcham shaklda nashr qilingan. Unda berilayotgan maqola va materiallarni siyosat, so'nggi yangiliklar, front hayoti, qizil frontlar, proletar madaniyati, bizda (ba'zan "Turkistonda"), chet elda, umumiy bo'lim, vaqti-vaqti bilan chop etilgan harbiy-siyosiy voqealar ("Toshkent 7-avgust" va boshqalar) kabilarga ajratish mumkin. Gazetaning oxirgi yillardagi nashrlarida esa birinchi sahifada RSFSR va qizil frontlardagi so'ngi voqealar, buyruqlar, murojaatlar, birinchi sahifaning orqa tomonida siyosat, umumiy bo'lim, chegara ortida, sovet davlati hayotiga oid umumiy-siyosiy mavzulardagi

shuningdek, milliy-ozodlik harakatlari to'g'risidagi maqolalar bosilgan. Gazetaning ikkinchi sahifasida Qizil armiya askarlari tomonidan yozilgan xatlar, partiya va sovet ishlari masalalari bo'yicha maqolalar nashr qilingan. Proletar madaniyati, front hayoti, e'lonlar va boshqar mavzudagi materiallar gazetaning uchinchi sahifasida bosilgan.

Aytib o'tish joiz "Красный фронт" o'z sahifalarida birinchi navbatda xalqaro maydonda ro'y berayotgan voqealar, frontlardan olingan operativ ma'lumotlarni berib bordi. Boisi, o'lkadagi bolsheviklar hokimiyati tarafdorlarini o'ta muhim harbiy-siyosiy voqealardan iloji boricha tezroq xabardor qilish maqsadi ko'zlangan edi.

Gazetaning bunday faoliyatiga G.Geyler baho berib shunday deydi: "... "Красный фронт" harakatlardagi frontlar haqida so'ngi ma'lumotlarni tezkorlik bilan berib bormoqda. Bu esa targ'ibot-tashviqot faoliyatimizning samarali bo'lishiga katta hissa qo'shyapti"[4].

"Красный фронт" o'z sahifalarida partiya, sovet va kasaba uyushmalari faoliyatiga oid ko'plab maqolalar va materiallarni berib borgan. Ular orasida RKP (b) ning VIII syezdi qarori ijrosi bo'yicha berilgan ma'lumotlariga to'xtaladigan bo'lsak, gazetada bu syezd qarorining asosan harbiy masalalarga oid banlari jumladan: yuqori harbiy tayyorgarlikka va intizomga ega bo'lgan katta armiyani tashkil qilish, armiya qo'mondonlari va komissarlari obro'sini oshirish, Qizil armiyaga oziq-ovqat, kiyim-kechak va harbiy qurol-yarog' bo'yicha yordam ko'rsatish va boshqalarga katta ahamiyat berildi.

Bundan tashqari gazeta sahifalarida sovet davlatiga uyushtirilgan xorijiy intervensiya, eserlar, mensheviklarning hokimiyat uchun olib borgan kurashlari izchil ravishda yoritib borildi. Ushbu masalalarga tegishli voqealarni ochib berishda bolsheviklarning to'g'rsi siyosat yuritayotganligi, ularning "xalqparvar" davlat barpo etishdagi o'rniga alohida ahamiyat berildi. Juda ko'p o'rinlarda intervantlar "ashaddiy bosqinchi, mamlakat ichidagi muxolif guruhlar esa sotqin, G'arb davlatlarining malayi" sifatida ko'rsatildi. Ko'rinib turibdiki, "Красный фронт" harbiy masalalarni yoritib berish jarayonida voqea tafsilotlarining siyosiy-mafkuraviy jihatiga katta e'tibor qaratib, Turkiston o'lkasi mahalliy aholisini yosh sovet davlatini qo'llab-quvvatlashga da'vat etgan. Biroq "Красный фронт" va boshqa bolshevistik harbiy davriy nashrlarning bunday chaqiriq va da'vatlariga o'lka mahalliy aholisi tomonidan u qadar e'tibor qaratilmadi.

Yuqorida aytilganidek "Красный фронт" ham boshqa harbiy nashrlar singari siyosiy-mafkuraviy masalalarga katta e'tibor qaratdi. Shu maqsadda o'z sahifalarida bolsheviklar yetakchisi V.Leninning nutqi va ma'ruzalarini muttasil berib bordi. "Turkiston kommunistlariga"[5], "O'rtoq Turkiston kommunistlariga"[6] va boshqalar shular jumlasidan.

"Красный фронт"ga materiallarni tanlash va ularni nashrga tayyorlashda asosan bolshevik vakillari katta o'rin egalladi. Xususan, Kommunistik partiyaning o'lkadagi rahbarlaridan hisoblangan A.F.Solkin V.Leninning xatlarini gazetada e'lon qilinishiga mas'ul hisoblangan. Bundan tashqari A.F.Solkin kelib tushgan barcha materiallarni mavzular bo'yicha ajratib berib, gazetaga g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan rahbarlik qilgan. "Туркестанского коммуниста" muharriri P.A. Kobozev siyosiy-partiyaviy maqolalarning nashriga, "Известия Туркцика" muharriri V.Sveshpikov sovet qurilishiga oid materiallarga, "Красный фронт" muharriri D.I.Stratulenko esa harbiy va adabiy mazmundagi materiallarning nashri uchun mas'ul etib belgilangan. Mana shundan ham ko'rsa bo'ladiki, bolsheviklar o'lka mahalliy aholisini o'z tarafiga og'dirib olishda harbiy-davriy nashrlarga katta ahamiyat bergan.

Gazetaning nashr qilinishida muhim rol o'ynagan shaxslar haqida muharrir D.I.Stratulenko ham o'z qaydlarida yozib o'tgan: "Biz har kuni kech soat oltida Shipkinskiy (Почтовая) ko'chasida joylashgan bosmaxona binosida majlis

o'tkazar edik. Majlisda P.A. Kobozev, Sveshnikov, Galich men va boshqalar katnashishgan. Sveshnikov va Galich tajribali jurnalistlar singari tahririyatga kelib tushgan materiallarni qisqartirish, talablarga moslash, tahrir qilish ishlarini bajarishgan[7].

1919-yilda "Красный фронт" gazetasi umumiy 8 sahifadan iborat bo'lib, unda berilayotgan materiallar quyidagi tartibda joylashtirilgan: birinchi sahifaning boshida "Bugungi Sovet Rossiyasi proletar inqilobning ikkinchi yilligini nishonlaydi. Boshqa bir katta bayram – proletariatning dunyodagi g'alabasi tez orada kelsin!" shiori joylashtirilgan. Yuqori chap tomonda bosh harflar bilan Lenin xatlari sarlavhasi ostida u bilan bog'liq materiallar berib borilgan. Ikkinchi sahifada sovet qurilishi bilan bog'liq jarayonlar berilib, sobiq imperiya davrida ishchilar turmushi, keyingi ikki yillikda ularning hayotida ro'y bergan o'zgarishlarga alohida urg'u qaratilgan.

Ikkinchi va uchinchi sahifalarda asosan 1917-yil oktyabr bilan bog'liq maqolalar: "Rossiyadagi burjua va proletar inqilobi" (muallifi Apina), Yuriya Talina tomonidan yozilgan "Natijalar" (Inqilob Rossiya mehnatkashlariga nima berdi?) nomli maqola shuningdek, 1917-1919-yillarda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ishlarga oid nutqlar, ma'ruzalar, tezislar ("Jahon inqilobida Sharqning roli"), ("Ikkita diktatura va ikkita armiya") hamda bayroqlar va plakatlar uchun shiorlar bosilgan.

Bundan tashqari uchinchi sahifada "Keling bir misol keltiraylik" sarlavhasi ostida proletar inqilob davrida sovet hukumati tomonidan olib borilgan islohotlar, inqilobning xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, inqilob tufayli aholi turmushidagi o'zgarishlar va boshqa masalalar ochib beriladi. Bunda proletar inqilobning xalqlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi asosiy maqsad sifatida ko'rilib, Bolsheviklarning tajovuzkorona siyosati jumladan, "Qizil terror" ga bir yoqlama baho beriladi.

Uchinchi sahifaning oxiri to'rtinchi sahifada to'laligicha "Sovet Rossiyasida", "Oqlar lagerida", "Chegara ortida", "Podsho frontlarida", "Turkrespublika hukumatining farmoyish va harakatlari" sarlavhalari ostida xabar va ma'lumotlar berib borilgan. "Красный фронт" ning yubiley sonida bu sahifada jami 48 ta material chop qilingan.

Gazetaning beshinchi sahifasida "Inqilobning ikki yilligida RSFSRdagi iqtisodiy hayot", Z.Efanovning "Yangi prognoz" (Yer islohoti) hamda V.Volpinaning "Proletar inqilob va san'at kabi maqolalari o'rin olgan.

Oltinchi varaqda P.Komarov, G.Svetlogo, A.Shel-metsy va boshqalarning she'rlari bosilgan bo'lsa, K.Libknext va R.Lyuksemburglarning portretlari hamda ular to'g'risidagi biografik ma'lumotlar yettinchi sahifani band qilgan.

"Красный фронт" ning 1919-yil yubiley sonidagi oxirgi sahifasida asosan Turkiston o'lkasi bilan bog'liq maqola va xabarlar bosilgan. P.Yakimenkoning "Toshkent barrikadalari" nomli maqolasi hamda "So'ngi xabarlar" ruknidan joy olgan Turkiston o'lkasidagi gruzinlarning partiyaga qabul qilish masalasi bilan bog'liq shikoyati shular jumlasidan.

Umuman olganda gazetaning 1919-yil yubiley sonida saksonga yaqin material e'lon qilingan bo'lib, shundan o'n yettitasi ichki va tashqi hayotdagi muhim masalalarga, to'qqizta she'r, o'n sakkizta shior va boshqa shu kabilar o'rin olgan.

Ta'kidlash kerak, bolsheviklar ushbu yubiley sonidan o'tkir mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga zo'r bergan. Shu maqsadda "Красный фронт" barcha frontlarga zudlik bilan va iloji boricha ko'p tirajda jo'natildi. Xususan, Zakaspiy fronti askari V.F.Karpich jarayonni o'z esdaliklarida qayd etib o'tadi[8]. Unda yozilishicha, Kazandjik ismli pochталon Ashxoboddan gazetaning ushbu sonini keltirgandan so'ng, undagi V.Leninning murojaati baland ovozdagi o'qib eshittiriladi. Undagi asosiy masalalar askarlarga birma-bir

tushuntirib berildi. Shundan so‘ng orkestr tomonidan “Интернационал” ijro qilindi. Natijada barcha miting qatnashchilari to‘lqinlanib, kuchli energiya bilan harakatdagi front tomon o‘tlanishdi[9].

“Красный фронт” g‘oyaviy-mafkuraviy yo‘nalishda olib borgan ishlari mahalliy sovet matbuotiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Xususan, Farg‘onada nashr qilingan “Пролетарская мысль” gazetasining 1919-yil 16-noyabrdagi 243 va 244-sonlarida shu jihatlariga e‘tibor qaratilgan. 244-sonda to‘rtinchi Turkiston polki askarlari tomonidan uyushtirilgan miting va uning ahamiyati ochib berilgan. Ko‘rinadiki, bolshevistik harbiy-davriy nashrlarning targ‘ibot-tashviqot ishlari barcha yo‘nalishlardagi sovet nashrlari tomonidan keng ommalashtirilgan.

Bir qator manbalarga tayanib shuni aytish mumkinki, “Красный фронт” Turkistondagi Qizil Armiya qismlari uchun siyosiy tribuna vazifasini bajarib bergan. Gazetada front va uning ortida ro‘y bergan voqealar, kunlik xabarlar ham bosilib turgan. Biroq uning asosiy e‘tibori o‘lkada ro‘y berayotgan g‘oyaviy-siyosiy voqealarga qaratilgan edi. Faqatgina “Красный фронт” ning ko‘pincha to‘rtinchi sahifasida berilgan “Front hayoti” bo‘limida harbiy masalalar bilan bog‘liq voqealar aks etgan maqolalar va xabarlar bosilgan.

1919-yil sovetlar tomonidan o‘lka davriy matbuoti sohasida ayrim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Turkiston Kommunistik partiyasi va TurЦИК Prezidumi tomonidan 1919-yil 11-noyabrda chiqargan qarori asosida “Известия” va “Туркестанский коммунист” gazetalari yagona “Известия Крайком и Туркцика” nomli nashrga aylantirildi hamda uning zimmasiga “Красный фронт” vazifalari ham yuklatildi. Oqibatda gazeta shu davrdan o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Turkfront huzuridagi siyosiy bo‘limining 1919-yil 16-dekabrda 20-sonli buyrug‘i bilan “Красный фронт” muharriri Stratulenko 1919-yilning 1-dekabridan Turkfront huzuridagi siyosiy bo‘lim inspektor-instruktor lavozimiga o‘tkazildi[10].

Ta‘kidlash kerak, qator manbalardagi ma‘lumotlarga ko‘ra “Красный фронт” faoliyat yuritgan davr mobaynida o‘zining 66 ta soni nashr qilishga ulgurgan. Biroq gazetaning barcha soni to‘laligicha saqlanib qolmagan.

Xulosa va takliflar. Xullas, bolsheviklar boshqa harbiy-davriy nashrlar qatorida “Красный фронт” dan ham muhim targ‘ibot-tashviqot quroli sifatida faol foydalanishga harakat qildi. Biroq “Красный фронт” da berilgan maqola va materiallar o‘lka mahalliy aholisida qatta qiziqish uyg‘ota olmadi. Shu sababli keyinchalik gazeta faoliyati to‘xtatildi.

ADABIYOTLAR

1. Намайев Н. О‘zbekiston hududida istiqlol uchun qurolli harakat va unga qarshi kurashning matbuot sahifalarida tarqib etilishi (1918–1934-yillar): Tarix fanlari bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 14.
2. Ўз МА, 34-фонд, 1-рўйхат, 325-иш, 121-варақ.
3. Ўз МА, 34-фонд, 1-рўйхат, 325-иш, 122-варақ.
4. За Советский Туркестан: (Сборник воспоминаний) / Под ред. Зевелева А.И.. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1963. – С. 114.
5. Ленин В. Полное собрание сочинение. Т. 30. – С. 117.
6. Ленин В. Полное собрание сочинение. Т. 39. – С. 304.
7. Фрунзавец. – № 95. 21 апреля, 1960 г.
8. Красная звезда. – № 94. 21 апреля, 1960 г.
9. Фрунзавец. – № 87. 12 апреля, 1963 г.
10. Известия. – № 1. 13 ноября, 1919 г.



Aziza REZVONOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: rezvonovaaziza@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori A.T.Zamonov taqrizi asosida

SOME CONSIDERATIONS ON THE HISTORY OF BUKHARA'S ABDULLAKHAN PERIOD MADRASSA

Annotation

The article analyzes information related to the architectural activities of Abdulla Khan II and madrasahs built by representatives of various fields during his time. Also, the madrasahs built in Bukhara in the second half of the 16th century and their architectural solution and external compositional appearance were studied based on historical sources and scientific literature. In it, the double madrasa built by Abdulla Khan, a number of educational institutions built by the khan's state and public figures, construction history, conditions, sources of financing and its architectural solution were analyzed.

Key words: Abdullah Khan II, structure, education, city of Bukhara, Qulbobo Kokaldosh, Shaibani madrasa, monument, dynasty, architecture, architecture, building history.

НЕКОТОРЫЕ МЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО МЕДРЕСЕ ПЕРИОДА АБДУЛЛА-ХАН

Annotatsiya

В статье анализируются сведения, касающиеся архитектурной деятельности Абдулла-хана II и медресе, построенных представителями различных направлений в его время. Также на основе исторических источников и научной литературы изучены медресе, построенные в Бухаре во второй половине XVI века, их архитектурное решение и внешний композиционный облик. В ней проанализированы построенное Абдулла-ханом двойное медресе, ряд учебных заведений, построенных ханскими государственными и общественными деятелями, история строительства, условия, источники финансирования и его архитектурное решение.

Ключевые слова: Абдулла-хан II, сооружение, образование, город Бухара, Кулбобо Кукалдош, медресе Шайбани, памятник, династия, архитектура, зодчество, история строительства.

BUXORONING ABDULLAXON DAVRI MADRASALARI TARIXIGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Maqolada Abdullaxon II ning me‘morchilik faoliyati, uning davrida o‘z nomi ham turli soha vakillari tomonidan qurilgan madrasalar bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda qurilgan madrasalari hamda ularning me‘moriy yechimi, tashqi kompozitsion ko‘rinishi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganilgan. Unda Abdullaxon tomonidan bunyod etilgan qo‘sh madrasa, xonning davlat va jamoat arboblari tomonidan qurilgan bir qator ta‘lim muassasalarining qurilish tarixi, shart-sharoitlari, moliyalashtirish manbalar ham uning me‘moriy yechimi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Abdullaxon II, inshoot, ta‘lim, Buxoro shahri, Qulbobo Ko‘kaldosh, shayboniylar madrasasi, obida, sulola, arxitektura, me‘morchilik, qurilish tarixi.

Kirish. O‘zbek davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi Buxoroi azimda ham nom va iz qoldirgan sulolalardan biri hisoblanadi. Demak XVI asr o‘rtalaridan boshlab shayboniy hukmdorlar tomonidan Buxoroda markazlashgan va poytaxt shahar sifatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy-ma‘rifiy rivojlanishlar sodir bo‘lgandir.

Shayboniylar davrida Buxoroda ilm-fan va ta‘lim sohasini rivojlantirish maqsadida bir qancha ta‘lim muassasalari bunyod etilgan. Shayboniylar me‘morchilik ishlarida ham qator yodgorliklar va turli maqsadga mo‘ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirganlar. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan katta moddiy imkoniyatiga ega kishilari ham chetda qolmaganlar. Chunonchi, Buxoroda shahar devorining ta‘mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Jo‘ybori Kalon, Fathulla Qushbegi madrasalari, Xo‘ja Zayniddin, Chorbakir masjidlari va ko‘plab mana shunday madrasa-yu, masjidlar, karvonsaroylar, bozorlar va boshqa qurilish ishlari bajarilgan. Ulardan bir qanchalari bizgacha saqlanib qolgan.

Movarounnahrda Amir Temuridan keyin bunyodkor shaxs shayboniylar sulolasi vakili bo‘lgan Abdullaxon (1557-1598) hisoblanadi. Abdullaxon ibn Iskandarxon o‘zining 40 yillik amaldagi va rasmiy hukmronligi davrida (1557-1598-yillar) Markaziy Osiyo hududida 1000 dan ortiq hamda 20 dan ortiq turdagi (madrasa, masjid xonaqoh, minora, maqbara, kutubxona, hammom, ko‘priki, to‘g‘on, sardoba, karvonsaroy,

rabod, chorbog‘, shifoxona, ombor, tim, va h.k.) [5]. Yuqoridagi fikrdan ko‘rishimiz mumkinki, shayboniylar sulolasidan bo‘lgan Abdullaxonning quruvchilik va yaratuvchilik, bunyodkorlik salohiyati yuqori darajada ekanligini. Qolaversa u o‘zining bunyodkorlik ishlaridan tashqari o‘zidan oldin yashagan shaxslar, ya‘ni temuriy hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan keyinchalik buzulib ketgan ayrim inshootlarni qayta qurgan va ta‘mirlagan bunyodkor shaxs hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik sharofati bilan tarixning har bir davri, shu jumladan, O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan xonliklar davri bo‘yicha ham manbalar, ilmiy asarlar orqali tahlil qilinib, xolisona tarix yoritila boshlandi. O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini o‘rganishda nisbatan kam tadqiq etilgan hamda e‘tibordan chetda qolib kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi davri ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Bugungi kunda shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan Buxoro xonligidagi madaniy jarayonlar tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari sanoqli. Shunday bo‘lsa-da, Buxoro xonligida shayboniylar hukm surgan davri tarixining turli jihatlarini R.G.Mukminova (1985), B.A.Ahmedov (1985, 1994), G.A.Agzamova (2000, 2017), H.H.To‘rayev (2007), A.Ziyo (1990, 2001), Q.K.Rajabov (2016), A.Jumanazarov (2017), A.Zamonov (2018) kabi mamlakatimiz olimlari tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilgan holda, tizimlilik,

xronologik va qiyosiy tahlil, statistik tadqiqot usullaridan foydalanilib, Buxoro xonligida shayboniylar sulolasining yirik madaniyat homiysi bo'lgan hukmdori Abdullaxon II ning madrasalar qurilishi bilan bog'liq faoliyati tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Shayboniylar davri hukmdorlar faoliyatiga bog'lagan holda uch davrga bo'lish mumkin: Shayboniyxon davri, Ubaydullaxon davri va Abdullaxon davri me'morchiligi. Uchinchi qurilish davri 1560-1590-yillarni o'z ichiga olib, u Abdullohon II ning kuchli birlashtiruvchilik hokimiyatiga bog'liq ravishda davlatning barqarorlashuvi tufayli XVI asr qurilishi va me'morchilik maktabi faol shakllandi, diniy binolar –masjid, madrasa, xonaqoh, shuningdek fuqorolik, inshootlari: tim, toq, karvonsaroy, xammom, hovuz, sardoba, ko'prik va hokozolarning tiplari mukammallashdi [3]. Qurilishning bu davrida kesishuvchi ravoq tizimida to'sin konstrukturalari jadal suratlarida rivojlangan. Bu davrda to'rtga kesishuvchi ravoqlar va qalqonsimon qismlarga asoslangan yakka qavat gumbazlaridan keng foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.

Buxoro me'morchiligi maktabida asosan rassomlar sarg'ish-qizg'ish – mahalliy tilda “zardor” deb nomlanuvchi rangdan ko'proq foydalangan. Bu rang Buxorodagi yog'ochdan tiklangan naqshinkor ustunlarda, g'ishtin binolarda, qadimiy eshik va darvozalarda, shu bilan birga hunarmandlarning zargarlik va zardo'zi buyumlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon madrasasi, Qulbobo Ko'kaldosh madrasasi, Govkushon madrasalari, Fathulla Qushbegi madrasasi, Mirakon madrasasi, Xoja Muhammad Porso madrasalari barpo etilgan. 1558-1559-yillarda Buxoroga tashrif buyurgan ingliz savdogari Antoni Jenkinson o'z kundaligida shunday yozgan edi: “Buxoro – hashamatli shahar, unda ko'plab pishiq g'ishdan qilingan binolar va mahobatli jamoatchilik qurilishlari, ayniqsa shunday hammomlari borki, dunyoda ularga teng keladigani yo'q”. Buxoro shahriga o'sha davrda tashrif buyurgan sayyohlar va savdogarlar ham o'z estaliklarida shaharda nechog'lik bunyonkorlik ishlari amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin [6].

Abdullaxon (1557-1598) davri ta'lim muassasalaridan biri Ko'kaldosh madrasasini 1568-1569-yillar ichida xonning vaziri Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan qurilgan. Abdullaxon hukmronligi davrida Qulbobo Ko'kaldoshning mamlakatni rivojlanishi va obodonlashtirilishida xizmatlari beqiyos bo'lgan. Abdullaxonning boburiylar hukmdori bo'lgan Akbarshoh bilan olib borgan muzokaralarida, xon va uning o'g'illari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, mamlakatda amalga oshirilgan taftish ishlarida amir Qulbobo Ko'kaldoshning xizmati katta bo'lgan [11]. Qulbobo Ko'kaldoshning zehni o'tkirligi tashabbuskorligi va sadoqati to'grisida o'sha davr tarixchisi Xofiz Tanish Al-Buxoriy Abdullaxon haqida yozayotib, uning ko'kaldoshga munosabatini shunday izohlaydi: “Agar Qulboboga o'xshab ishlarni intizomga qo'yadigan yana bir kishi bo'lsa edi, har vaqt qudratli davlatning kuchi bilan olamni jahongir qo'lga va tadbir qulochiga olardi” [8].

Ko'kaldosh madrasasi Buxorodagi eng yirik (86x89 metr, 130 taga yaqin xujrasi bor) madrasalardan biridir. Biroq mablag' va turar joyi tejash uchun u bo'ylama o'q bo'yab ikkitagina gumbazli va ayvonli qilib qurilgan. Unda Turon madrasalari ichida ilk bor yalang'on tomoni tashqariga ikkinchi qavatining ravoqli pesh ayvoni bilan ochilgan. Natijada kesishuvchi ravoqlar devorlarga parallel bo'yab joylashgan bo'lib, kirish guruhidagi (darsxona) burchak zallarining tom to'sini o'ziga xos qurilganligini ko'rishimiz mumkin. Madrasaning qurilishida xom va pishiq g'isht, loy, yog'och, maxsus “qir” qotishmasi va shu kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanilgan [7]. Ko'kaldosh madrasasi nafaqat Labi hovuz ansambilidagi katta imoratlardan biri, balki, Buxoro shahridagi eng katta imorat hamdir.

Qulbobo Ko'kaldosh madrasaning uzoqdan ko'zga tashlanishini nazarda tutib, ikki qavat balandligida qator ravoqlar qurishga ko'rsatma bergan. Madrasaning bosh fasadi peshtoqli bo'lib, u ansambil maydoniga qaratilgan. Peshtoqli bezatib turgan koshinlar bizgacha saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi eshikka girix va islimiy naqshlar ishlangan. Mix qoqmay, “tirnoq” qilib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan eshik yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rinadi. Madrasa hovlisiga bir necha xonadan o'tib kiriladi. Shu tufayli gumbazlar konstruksiyasi yaqqol ajralib turadi. Madrasa hovlisi uzun. Hovli tomondagi ikki qatorli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan baland ayvonlar ajratib turadi. Ko'kaldosh madrasasi ham “chor” uslubda qurilgan bo'lib, ular eshik va g'ishtlarning terilishi xotamkori uslubida o'z aksini topgan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag'allari, shipi o'ziga xos turli shakldagi murakkab to'rsimon-yulduzsimon, qolibkori va iroqi uslubda pishiq g'ishtda ganj qorishmasidan terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37m), o'rtaga yangi imorat 1929-yilda bunyod etilgan. Hovli tomonida qurilgan imorat 2 qavatli 160 hujra bilan o'ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan.

Buxoro me'morchiligining o'ziga xos namunalaridan biri bo'lgan bu Qo'sh madrasa me'moriy ansambili murakkab arxitekturaviy yechimga ega hisoblanadi. Bu inshoot shayboniy hukmdorlardan bo'lgan Abdullaxon hukmdorligi davrida, 1566-1567-yillar ichida bunyod etilgan. “Buxoroning tashqi qal'asida, shaharning g'arb tarafida, xiyobon ko'chasida xon hammomi qarshisida 1566-1567-yilda toqilar baland gumbazlari yuqori va 2 qavatli, ko'p hujralardan (108) iborat oliy madrasa qurildi”, – deb yozadi o'sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullaxon madrasasining tuzilishi odatdagilaridan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi. Har ikki tomonda baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o'tiladi. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor koshinlar bilan pardozlangan. Darvozadan o'tib, ikki yoqdagii katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi. Madrasani barpo etishda murakkab gumbaz va bezaklar qo'llanilgan.

Me'moriy inshoot Sharq me'morchiligining “qo'sh” uslubida bunyod etilgan bo'lib, u ikkita inshoot Abdullaxon madrasasi (G'arbiy madrasa) va Modarixon madrasa (Sharqiy madrasa)laridan iboratdir.

XVI asr Buxoro me'morchiligiga xos bo'lgan, bir o'q bo'yicha ro'para turuvchi qo'sh madrasa ansambili Modarixon madrasasi (Sharqiy madrasa) 1566-1581-1582-yillarda Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj-guldastalar bilan bezalgan, 62 ta hujradan iborat bo'lgan [4]. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag'allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan. Modarixon madrasasi devorlarining ikki chekkasi pishiq g'ishtdan terilgan bo'lib, o'rtasi singan g'isht bo'laklari bilan to'ldirilgan. Madrasa 2 qavatli chorsu tarhli 67x45 m. hisoblanadi. Bosh tarzda ulkan peshtoq va uning 2 yoni 2 qavatli bo'lib, oldi ravoqli 3 qismga ajratilgan va xonalari oldi handasiy uslubda koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning qurilishida yog'och xom va pishiq g'ishtlar va maxsus ishlangan “qir” qotishmasidan keng foydalanilgan. Madrasaning 2 burchagida charxi gumbaz bilan qoplangan xonalar va miyonsaroy, darsxona, masjid ham mavjud bo'lgan.

Abdullaxon davri madrasalaridan yana biri – Govkushon madrasasi XVI asr o'rtalarida, Buxorodagi jo'ybor shayxlari Muhammad Islom (1493-1563) va Xo'ja Sa'd

(1531\32-1589) tomonidan 1562-1566-yillarda barpo etilgan [9].

Abdullaxon II hukmronligida jo'ybor xo'jalarining mamlakatda qudrati va nufuzi baland bo'lgan. Bu o'sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning quyidagi ma'lumoti "Jo'ybor xo'jalaridan biri Xo'ja Sa'd Buxoro xoni Abdullaxon II ning murabbiysi va maslahatchisi sifatida siyosiy voqealarda shaxsan ishtirok etgan. Hattoki Abdullaxon II Xo'ja Sa'd ruxsatisiz birorta ham muhim ishini amalga oshirmagan" orqali ham ko'rishimiz mumkin.

Madrasaning Govkushon deyilishiga sabablardan biri Govkushon mahallasida joylashganligi va uning yaqinida Govkushon – go'sht bozori ham bo'lganligi bo'lishi mumkin.

Govkushon madrasalarida butun binoning bir qavatligida unga muhtashamlik baxsh etish uchun old tomoni ikki qavatli qilib qurildi [2]. Madrasaning sharqiy tarafi ikki qavatli, yon va orqa tomonida bir qavatli hujralar va mezana mavjud. Peshtoqning g'arbidagi ravoq ustidagi qanosi o'simliksimon sirkori naqshlar, kitoba qismi esa suls xati bilan bezalgan. Kiraverishda, o'ngda xonaqoh-masjid (darsxona) bor. O'rtadagi hovli (25x35 m) ning to'rt tomoni hujralar bilan o'ralgan. Xo'ja masjidi kirish peshtoqi, hovli atrofi g'ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minoradan tashkil topgan. Minora (19,5 m) ga masjid tomidagi ravoqli ko'prik orqali chiqilgan. Minora turli shakldagi g'ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklasha borib, fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag'ishlaydi.

Madrasalardan yana biri – Fathulla Qushbegi madrasasi XVI asrning so'ngi choragida, 1585-1586-yillarda bunyod etilgan. Fathulla Qushbegi shayboniylar sulolasi hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxon davrida qushbegi lavozimida faoliyat yuritgan. O'sha davrda yashagan Hofiz Tanish Buxoriy u to'g'risida "Eskidan qushbegilik mansabini egallab kelgan, xon xazratga manzur janob, rif'atli va xashamatli amir Fatxulloxlard hozir bo'ldilar" ma'lumot keltirib o'tgan [10].

Buxoroning eski shahar qismida Xoji Hasan guzarida Abdullaxon II ning buyrug'iga binoan davlat xazinasi

hisobidan 65 xujradan iborat madrasa bunyod ettirildi. Madrasa qurilishida Fathulla Qushbegi faol qatnashgani uchun madrasa xalq orasida uning nomi bilan atalgan. Bu haqida vaqf hujjati ham bor. Unda aytilishicha, xazrat amir Fathulla Qushbegi ibn amir Asadullox ilm ahli uchun Ma'sudbek guzarida madrasa qurdirgan. Uning ustki va tashqi hovlisi, tahoratxonasi va gumbazlari bo'lgan. Madrasaning g'arbida vaqf do'konlari, shimoli va sharqida yer-mulklar, janubi ko'cha bilan o'ralgan [1].

Madrasa, qishgi va yozgi masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iborat. Binoning old tomoni 2 qavatli, qolgan tomonlari 1 qavatli. Hovli 44 ta bir qavatli xonalar bilan o'ralgan. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Buxoroning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Darsxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Tashqi ayvonning ko'cha tomoni past devor bilan to'silgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Abdullaxon II davrida Buxoroda ilm-fan, shaharsozlik, me'morchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi sohalarda katta yutuqlarga erishilgan. Bu esa shayboniylar hukmronligi davri o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega davr ekanligini ko'rsatib turibdi. Shayboniylar ham temuriylardan qolishmagan holda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Buni birgina Abdullaxon misolida ko'radigan bo'lsak, u 40 yillik hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududida 1000 dan ortiq hamda 20 dan ortiq turdagi (madrasa, masjid, xonaqoh, minora, maqbara, kutubxona, hammom, hovuz, ko'prik, to'g'on, sardoba, karvonsaroy, rabot, chorbog', shifoxona, ombor, tim, toq va h.k.) qurdirganki, ungacha va undan keyingi davrlarda ham Turondagi biror hukmdor bunyodkorlik sohasida bunday natijaga erisha olmagan. Shayboniy hukmronlardan tashqari o'z davrining yetuk namoyondalari ham madrasalar barpo ettirgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, shayboniylar davri me'morchiligi madaniyat va san'at tarixida chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan eng dolzarb mavzulardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Абдусаттор Ж. Бухоро таълим тизими тарихи. / [Матн] - Тошкент: Akademnashr, 2017. – 6-424.
2. Бухоро шарқ дурдонаси.-Тошкент: Шарқ, 1997.-6.98.
3. Vaxitov M.M., Mirziyoyev Sh.R. Me'morchilik (1-qism Me'morchilik tarixi). T., 2010.
4. Жуманазар. А. Бухоро таълим тизими тарихи.-Тошкент: Akademnashr, 2017.- 6.424.
5. Замонов А. Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари Матн Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр/-Тошкент: Bayoz, 2020.-6.122.
6. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – T.: Bayoz, 2021.
7. Zamonov A. Tarix fanidan olimpiyadaga tayyorlanamiz. – T.: Bayoz, 2012.
8. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида.-Тошкент: Lesson Press, 2016 6.162.
9. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. Форс тилидан Мирзаев С. таржимаси. 1-жилд.-Тошкент: Шарқ,-1999.6-58,61.
10. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. Форс тилидан Мирзаев С. таржимаси. 2-жилд. – Т.: Шарқ, 2000.



УЎК: №394:291.21 (043.3)

Shavkatjon TO'LANBOYEV,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: shavkatjon1972@mail.ru

NamDU dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) B.R.Xalmuratov taqrizi asosida

G'ULOM ZAFARIY – MILLIY JADID TEATRI ASOSCHILARIDAN BIRI

Аннотация

Ushbu maqolada XX asr boshlarida o'zbek teatr san'atida sodir bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar, uning millat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, mazkur jarayonda taniqli o'zbek ziyolisi G'ulom Zafariyning qo'shgan hissasi aks etgan. Maqolada asosiy e'tibor, o'tgan asrning boshlarida Turkistonga rus va yevropa teatrlarining kirib kelishi, mazkur jarayonning milliy teatrning ilk namoyondalarining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siriga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Teatr, milliy teatr, jadidchilik, jadid teatri, sahna sirlari, ma'naviy o'zgarishlar, Turkiston o'lkasi, pyesa, drama, mustaqillik, truppa.

ГУЛАМ ЗАФАРИ -ОДИН ИЗ ОСНОВАТЕЛЕЙ НАЦИОНАЛЬНОГО СОВРЕМЕННОГО ТЕАТРА

Аннотация

В данной статье отражены революционные изменения, произошедшие в узбекском театральном искусстве в начале XX века, его роль в подъеме духовности нации, вклад в этот процесс известного узбекского интеллектуала Гулама Зафари. Статья посвящена приобщению в Туркестане в начале прошлого века русских и европейских театров, влиянию этого процесса на формирование первых представителей национального театра.

Ключевые слова: Театр, национальный театр, джадидизм, джадидский театр, сценические тайны, духовные перемены, земля Туркестанская, песа, драма, независимость, группа.

GULAM ZAFARI – ONE OF THE FOUNDERS OF THE NATIONAL MODERN THEATER

Annotation

This article reflects the revolutionary changes that took place in Uzbek theater art at the beginning of the 20th century, its role in raising the nation's spirituality, and the contribution of the famous Uzbek intellectual Ghulam Zafari in this process. The article focuses on the introduction of Russian and European theaters to Turkestan at the beginning of the last century, the influence of this process on the formation of the first representatives of the national theater.

Key words: Theater, national theater, Jadidism, Jadid theater, stage secrets, spiritual changes, the land of Turkestan, pesa, drama, independence, troupe.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan boshlab xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix faniga doir tadqiqotlarni har taraflama takomillashtirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27- iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida" gi Qarori [1]da tarix fani muammolariga, tarixnn milliy istiqol mafkurasi nuqtai nazaridan o'rganishning falsafasi va uslubiyatini egallash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu hujjatda birinchi navbatdagi vazifalar sifatida "o'zbek xalqi va davlatchiligining haqiqiy tarixini o'rganish", jumladan, "bizning xududimizda eng qadimdan hozirga qadar, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida yashab kelgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini tadqiq etish" ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekistonda tarix fani sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda muhim o'rin tutgan jadidchilik harakati va unga doir ilmiy izlanishlari mustaqillik davrida yangicha bosqichga ko'tarildi. Chunki, mazkur ijtimoiy-siyosiy harakat jamiyatdagi ma'naviy tiklanish jarayonlarini qa madaniy o'zgarishlarni o'zi ichiga olganligi bilan xarakterlidir. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur muammoga nisbatan ilmiy jamoatchilik e'tibori nafaqat jadidchilik harakati XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlarining siyosiy va ijtimoiy hayotida tutgan muhim o'rni va ahamiyati bilan, balki bu muammoning sovet davrida noto'g'ri talqin qilib kelinganligi bilan izohlanadi.

Zero, mustaqillikka qadar jadid namoyondalariga burjuacha qarash ustunlik qilgan, mazkur harakat "jamiyatni qoloqlikka tortuvchi to'g'anoq" sifatida salbiy baholanib, bu

hol pirovardida jadidchilikning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni asossiz ravishda kamsitib, buzib talqin etilishiga olib keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shu munosabat bilan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar va tadqiqotlar o'z g'oyaviy, siyosiy va mafkuraviy asoslari hamda xulosalari bilan alohida e'tiborga loyiqdir.

Mavzu tarixshunosligi shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi va mustabid sovet tuzumi davrida mazkur masala alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Lekin, o'z navbatida shuni qayd etish kerakki, sovet davrida e'lon qilingan ba'zi bir maqolalar, chop etilgan mavzuga doir risolalarda muammoning ayrim jihatlarini yoritib berilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada xronologik, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, semantik-semiotik nazariya, kuzatish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'z navbatida jadidchilik harakati taraqqiyotida jadid teatri alohida o'ringa ega. Turkistonda jadid teatrlarining vujudga kelishida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, G'ozzi Yunus, Xurshid (Shamsiddin Sharofiddinov), Toshqin (Mo'minjon Muhammadjonov), Hamza, Abdulla Qodiriyning xizmatlari beqiyos (3). Ana shunday milliy jadid arboblardan biri G'ulom Zafariydir.

G'ulom Zafariy 1889-yilda Toshkentning Zarqaynar mahallasida tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotini Xo'ja Ahmad va Ko'kaldosh madrasalarida olgan G'ulom Zafariy shoir va yozuvchi Abdulla Qodiriyning eng yaqin do'stlaridan biri edi. G'ulom Zafariy do'sti singari Toshkentda o'chilgan rus-tuzem maktabida tahsil olib, keyinchalik, aniqrog'i 1912-yilda O'sh

shahriga borib, ikki yil davomida O'shdagi "usuli jadid" maktabida o'quvchilarga saboq bergan. 1914-yilda Toshkentga qaytib kelgan G'ulom Zafariy mahalliy jadidlar bilan yaqinlashib, 1915-1916-yillarda o'sha davrda Turkistonda mashhur bo'lgan "Turon" jamiyatining a'zosi aydangan. Jadid matbuoti va teatrida olg'a surilgan yangi fikr va g'oyalar uni Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo'jayev singari taniqli ma'rifatparvarlar va san'atkorlar davrasiga qo'shilishiga sabab bo'lgan. Shuni o'z o'rnida qayd etish kerakki, G'ulom Zafariy 1916-1921-yillarda "Turon" teatr truppasida aktyor va dramaturg bo'lib ishlagan.

O'z o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, G'ulom Zafariy va "Turon" teatr truppasining boshqa a'zolari 1917-yil Fevral voqealaridan keyin o'zlarini xalq va mamlakat taqdiri oldida mas'uliyatli, deb hisobladilar. Rossiya imperiyasining Fevral inqilobi natijasida yemirilishi ular dilidagi mustaqillik g'oyalarini kuchayishiga olib keldi. Mana shu voqealardan keyin mazkur jadid namoyondasi Toshkentda faoliyat olib borayotgan "Sho'roi Islom" tashkilotiga a'zo bo'lib kirgan edi. Lekin, G'ulom Zafariyning mana shu siyosiy faoliyati uning keyingi taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek adabiyoti ixlosmandlari G'ulom Zafariyning "Halima" musiqali dramasi orqali yaxshi biladilar. Lekin, mazkur jadid namoyondasi bundan tashqari "Paxtakon", "Yangi odam", "Sayil va to'y" kabi musiqali dramalar muallifi hamdir[4].

O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, kitobxonlar va tomoshabinlar "Halima" asarini iliq kutib olgan edi. Asarning musiqali drama janrida yozilganligi, ariya va duetlarining mumtoz xalq kuylariga asoslanganligi, eng muhimi, bir-birini sevgan, bir-birisiz yashay olmaydigan ikki yoshning ruhiy iztiroblari va bir-birlariga xiyonat qilmagan holda bu adolatsiz dunyoni tark etishlari tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinadi.

G'ulom Zafariy 1915-1926-yillar mobaynida "Halima" dramasi tashqari, "Bahor", "Binafsha", "Quyov", "Rahimli shogird", "Erk bolalari", "Tatimboy ota" kabi operattalar, "Gulyor", "Chin Temir botir", "Ketmon chopti", "Qora kunlar", "Yoshlar endi berilmas" kabi dostonlarni yozib tugatdi[5]. Ushbu asarlarning bir qismi bolalar va yoshlar hayotidan olingan bo'lib, ular o'zbek adabiyoti tarixida bolalar musiqali dramasi dastlabki namunalar sifatida qolgan.

G'ulom Zafariyning "Sayil va to'y" operettasi keyinchalik Komil Yashin tomonidan qayta ishlanib, 1937-yilning may oyida Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadasida "Kolxozda sayil" nomi bilan atoqli dramaturgning asari sifatida namoyish etildi. "Paxtakon" va "Yangi odamlar" operettalari esa muallif nomi hurmat va e'tibordan qolgan yillarda sahna yuzini ko'rmaganligi, nashr ham etilmaganligi achinarli holdir.

G.Zafariydan tashqari, Abdulhamid Cho'lpon ham xalq orasida tomir otgan askiya va qiziqchilikni keng targ'ib qilib, ularning ko'lamini yanada oshirishni ta'kidlashi ham xarakterli: "Xalq qiziqchilarni o'rganish teatrimizning komediyachilik tomoni uchun katta oziq beradi". Xalq o'rtasida avj olgan ushbu an'anaga san'at ruhi va mazmunini to'liq kiritish borasida Cho'lponning qayg'urishlari tahsinga sazovor. Cho'lpon qiziqchilar san'atini yanada keng qo'llashni taklif etadi. Uning fikricha, "... ularning asarlarini, ularning ommaviy va yangi ijodlarini yolg'iz sayillar, to'ylar va ochiq maydonlarga emas, opera, drama, komediya sahnalarida ham ko'rish kerak" [6].

Cho'lpon hech bir san'at faqat o'zining milliy qobig'ida o'ralib qolib, ulkan yutuqlarga erishishi mumkin emasligini chuqur tushungan edi. Uning estetik qarashidagi asosiy masalalardan biri san'atda baynalmilallikka katta ahamiyat berish, uning zaminida o'zbek san'atini taraqqiy ettirishdir. Mana uning estetikasining tub mohiyati: "...Ovro'pa muzika bilimini yetarlik darajada o'rganib, undan keyin Sharq klassik maqomlari va xalq kuylarini ham

yaxshilab tekshirib, Sharqning eski muzika bilimlari bilan ham tanishib maydonga chiqsa, qimmatbaho asarlar bergan bo'lar edi", degan edi Matyusuf Harrantov haqida. Cho'lpon Yevropa san'atini o'rganishigina emas, uni chuqur egallash kerakligini uqtiradi. "...Ovro'pa muzika bilim zinasining birinchi pog'onasiga qadam qo'yug'onlar, narigi pog'onalarga ham tirmashib chiqmasalar, chala bilim bilan muzika sohasida ko'p narsa qilolmaydilar..." deydi.

Adibning satirik asarlarga qo'ygan talablari ham diqqatga sazovor. "Turmushda kuluna turgan joylar bor: ammo u joylarni sahnada yasamoqlik bilan berilganda kulgi chiqmaydi, balki aksincha, tabiiy turmushdagiday qilib berilsa kulgi chiqadi". U spektakldagi har bir hodisa, har bir qiliq, artistning tashqi qiyofasi o'zi o'ynagan rolga har jihatdan mos tushishi kerakligini qat'iy talab qilgan. "Kovai ohangar" spektaklida bir chol obrazi xususida to'xtalib, "...yoshim saksonga yetdi" degan cholning basharasi va harakatlari ko'proq yoshlarcha bo'lub o'tdi..." deydi [7].

Cho'lpon teatr tarixida juda xarakterli bo'lgan, spektaklda kichik bo'lib ko'ringan, ammo asar mohiyatiga zarar yetkazadigan, tomoshabinlarni san'at haqiqatidan bezdiradigan bir misolni keltiradi. Fitratning "Chin sevish" asari asosida qo'yilgan spektakl haqida to'xtalib, jumladan, shunday deydi: "Sahna orqasidan otuluvlar o'z vaqtida chiqmadi va shuning natijasida Rahmatullaxon o'q tegmasidanoq o'la berdi".

Spektaklning barcha tomonlarini ziyalik bilan kuzatgan Cho'lpon unda har bir detalning real bo'lishiga da'vat etgan. Masalan, grimlar ortiq darajada sun'iy ekanligi uning g'ashini keltirgan. U achinib, kuyib shunday yozgan: "...bizda tuzanish (grim)ga ko'b ahamiyat berilmaydir. Tuzanishni shoshilib yasaylar-da, so'ngra sun'iy sochlar ostidan haqiqiy sochlar ko'b vaqt "mana men" deb ko'runub qo'yadilar".

Cho'lpon o'z rollarini qoyil qilib o'ynagan, xarakter mohiyatidan kelib chiqadigan kulgini tabiiy ravishda berolgan, ijroda samimiylik, haqqoniylikni saqlayolgan aktyorlardan mamnun bo'lardi. U artist Lutfulla Nazrullayevning "Hamlet" spektaklidagi Poloniy obrazini xuddi shunday talab darajasida yaratganidan zavqlanib, kulgili holatlarning tabiiy, to'g'ri chiqqanini alohida qayd etgan [8].

Adib teatrga, artistlar oldiga birdan-bir to'g'ri talabni qo'yadi: "Samimiylik, rolni anglab o'ynashlik, sahnada erkin bo'lishlik...". Atoqli aktrisa Tursunoy Saidazimovanning iste'dodidan, rollarni samimiy ijro etganidan, haqqoniy o'ynaganidan qoyil qolgan adib uning "Arslon" (Fitrat) dramasi Zaynab roli xususida shunday yozadi: "Tursunoyning qudrati va quvvati o'sha kichkina ro'lni ham ulkanlar qatoriga chiqardi, bir ko'rinib o'tatargon Zaynabni bir umr unutilmas tasvirga aylantirdi".

Adibimizga Tursunoyning "Ikki boyga bir qarol" spektaklidagi qirolicha roli ijrosi ham juda ma'qul tushgan. U juda berilib o'ynaganidan, "uning ichida erkin-erkin" yashashidan cheksiz mamnun bo'lgan. Xuddi shunga o'xshash ijobiy gaplarni sahna bulbuli Halima Nosirova to'g'risida ham to'liqlanib, zavq-shavqqa to'lib yozgan edi.

Cho'lpon estetikasida yana bir jiddiy masala ko'zga tashlanadi. U rejissyor har bir aktyorning o'z ampluasi - o'ziga mos o'yinlariga qarab, shuni nazarda tutib rol taqsimlashi zarurligini ilgari surgan. Haqiqatan ham bir murakkab, qiyin obrazni yaxshilab sahnada gavdalantirgan artist, boshqa tipdagi obrazni me'yoriga yetkazib o'ynay olmasligi mumkin. Ushbu holat tomoshabinlar oldida iste'dodli artistning obro'yi-ga putur yetkazib qo'yishga olib keladi. Buni chuqur tushungan Cho'lpon shu kabi xatoning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik uchun jon kuydirgan. U Molerning "Jorj Dandin" asari asosidagi spektaklda bosh rolni ijro etgan artist Karimjon misolida bu tipdagi xatoning oqibatlarini san'atga qanchalik zarar yetkazishini yaqqol ochib beradi: "...Shunday bir erkin kuldirdigichga kulgidan ko'ra ko'brak fojiasi bor bir ro'lni

berganlar. Shu uchun uning fojiali so'zlari ham, kulgili so'zlari ham bo'sh, talvasasiz, ishonchsiz chiqadi... Karimga shu ro'lining yanglish berilgani butun asarga ta'sir qildi", deb xulosa chiqaradi adib [9].

Artistlar ijrosida nuqsonlarning kelib chiqishiga asosiy sabab, ularning o'qib-o'rganmasliklari, hayotni yaxshi bilmasliklari, drama va teatr sirlarini egallab olmaganliklaridadir. Buni Cho'lpon asoslab ko'rsatib bergan edi: "Sahnada, -deb ta'kidlaydi adib, talantdan tashqari, madaniyat ham kerak. Buning yo'li ma'lum: o'rganish! Aktyor – eng avval turmushning o'zidan (tiplar, so'zlar va hokazo), kitob mutolaalaridan, lektsiya va darslardan, boshqa teatr va akto'rlardan, o'z ustozlaridan o'rganadi. Shularning birginasi kamlik qilg'onda ham akto'rning turgan joyida deqsangani bilinib qoladi" [10].

Cho'lpon estetikasini tashkil etuvchi muhim masalalardan yana biri – til. Cho'lpon drama va spektakl tiliga juda katta e'tibor berib, maqolalaridan birini "So'z, so'z, so'z!" deb nomlashida chuqur ma'no bor. So'z, -deydi adibimiz, — san'atning klassik eng mukammal nusxasidir". U "...tomoshalarning, teatru tomoshasining asosan so'z ustig'a qurultg'onini.." alohida qayd etadi [11].

Shu sababdan ham aktyordan xalqdan va folkloridan ruhlanib, oziq olib, so'z ustida tinmay, uzluksiz ishlashni, sahnadan turib chiroyli luqmalarni go'zal qilib aytishni, asarlarning mazmuniga, qahramonlar xarakteriga, yuz bergan voqealar ma'nosiga qarab ovozdagi ohangni turlicha izhor qilib berishni talab qilar ekan, bu bilan muhim badiiy

printsipni targ'ib ham etgan. Adib sahnada arabiy va forsiy so'zlarni yanglish aytishga, shevalarni o'rinsiz ishlatishga, so'zlarning buzib, tutilib, yamlab talaffuz qilinishiga, mazmundagi tovlanishni berolmasdan bir ohangda gapirishga, so'z bilan harakatning uzilib qolishiga, musiqa teatri bilan drama teatrida ovozlarning farqiga yetmaslikka qarshi chiqqan.

Cho'lpon endigina boshini ko'tarib, qaddi-qomatini rostlay boshlagan, Hamza va Mannon Uyg'ur tashkil qilgan milliy o'zbek teatriga juda yuksak baho berdi, uning har bir muvaffaqiyatli spektaklidan zavqlanib, zudlik bilan ijodiy-ilmiiy fikr bildirib, xalq o'rtasiga tashladi. "Orqamizda, -deb yozadi Cho'lpon, – taxminan 12-13 yillik havaskorlik yo'li qoldi. Chin ma'nosi bilan teatrimiz emas, sahna bilan oshnolig'imiz boshlang'ichlikdan chiqdi. Demak, biz sahnada (qaytarib aytaman: sahnada!) ancha o'sdik"[12].

Shunisi xarakterliki, adib milliy teatring evolutsiyasini yilma-yil kuzatib bordi, uning rivoji qalblarini quvonchlariga to'ldirdi. Teatr to'g'ri yo'lni tanlab, izchillik bilan olg'a qarab borayotganini alohida qayd etdi.

Xulosa va takliflar. G'ulom Zafariyning asarlarida ko'tarilgan mavzular o'z tarbiyaviy ahamiyatining kengligi, tushunarli tilda yozilganligi, asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari yaxshir talqin qilinganligi bilan xarakterlidir. Shuni inobatga olgan holda G'ulom Zafariyning o'zbek adabiyoti, publitsistikasi, teatri va milliy musiqasining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni alohida e'tirofqa loyiq ekanligini unutmaslik kerak.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисидаги қарори // Халқ сўзи. 1998-йил 28-июнь.
2. Постовский Б.А. Ўзбек театрининг тарихи / Инқилоб. – 1922. – №3. – Б. 12–16; Раҳмонов М. Ҳамза ва Ўзбек театри. – Тошкент, 1959. – 392 б; Раҳмонов З. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг тараққиёт йўллари). – Тошкент: Фан, 1968. – 239 б; Сейданов Қ. Ҳамза ва қардош халқлар адабиёти. – Тошкент, 1988. – 149 б; Троицкая А. Из истории народного театра и цирка Узбекистана // Советская этнография. – 1948. – №3. – С. 31–35; Турсунов Т. Октябрьская революция и Узбекский театр. – Ташкент, 1983; Қодиров М. Масхарабоз ва кизикчилар санъати (Фарғона анъанавий театри). – Тошкент: Фан, 1971. – 287 б; О'ша муаллиф: Ўзбек халқ томоша санъати. – Тошкент, 1981. – 126 б; Қорабоев У. Бадий-оммавий тадбирлар. – Тошкент, 1986. – 164 б; Қосимов Б. Абдулла Авлоний. – Тошкент, 1979. Хўжаев С. Фидойилар. – Тошкент, 1990. – 47 б.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти дарғалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 158.
4. Турдиев Ш., Қориев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси (1918–1941 йй). – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 44.
5. Каримов Н. XX аср адабиёти дарғалари. ... – Б. 167.
6. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари.... – Б. 102.
7. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда зироат ва дехқончилик // Садоий Фарғона. 1914-йил 30-май.
8. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари..... – Б. 105.
9. Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б. 135.
10. Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б. 136.
11. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда зироат ва дехқончилик // Садоий Фарғона. 1914-йил-30 май.
12. Постовский Б.А. Ўзбек театрининг тарихи / Инқилоб. – 1922. – №3. – Б. 12–16.



UDK:325.14:94(430)

Xiyolaxon TURG'UNOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:khiyolakarimova@gmail.com

AnDU t.f.f.d.(PHD) dots.v.b J.M. Xasanov taqrizi asosida

ANGELA MERKEL'S HELP TO EUROPEAN IMMIGRANTS

Annotation

In this article Angela Merkel's reforms during the migration crisis in Europe in 2015 is analyzed. And also difficulties of reforms and ways to solve problems are analyzed based on information from mass media and foreign sources. The results of her career and achievements are disclosed.

Key words: Angela Merkel, European immigrant crisis, vice chancellor Zigmar Gabriel, Bavarian Minister Horst Seehofer, Yasmin Fahimi, SPD, CSU, Lisbon Treaty, NATO, UN Nansen award.

ПОМОЩЬ АНГЕЛЫ МЕРКЕЛЬ ЕВРОПЕЙСКИМ ИММИГРАНТАМ

Аннотация

В данной статье рассматривается реформа Ангелы Меркель во время миграционного кризиса в Европе 2015 года. На основе информации СМИ и иностранных источников проанализировано трудности реформы и решения проблемы. А также раскрыто награждения за достижения.

Ключевые слова: Ангела Меркель, европейский иммиграционный кризис, вице-канцлер Зигмар Габриэль, министр Баварии Хорст Зеехофер, Ясмин Фахими, СДПГ, ХСС, Лиссабонский договор, НАТО, премия ООН имени Нансена.

ANGELA MERKELNING YEVROPA MUHOJIRLARIGA BERGAN YORDAMI

Аннотация

Ushbu maqolada 2015-yil Yevropa muhojirlar inqirozi davrida Angela Merkelning bergan yordami, islohotlari, bu borada duch kelgan qiyinchiliklari va yordami evaziga BMTning "Nansen" mukofotiga sazovor bo'lgani muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Angela Merkel, Yevropa muhojirlar inqirozi, vitse-kansler Zigmar Gabriel, Bavariya vaziri Horst Seehofer, Yasmin Faximi, SPD, CSU, Lissabon shartnomasi, NATO, BMTning "Nansen" mukofoti.

Kirish. Angela Dorotea Merkel Germaniyaning birinchi ayol kansleri bo'lib, 2005-2021-yillar davomida Germaniya hukumati rahbarligiga ketma-ket uch marta saylangan yagona ayol kansler hisoblanadi. U faoliyati davomida nafaqat Germaniyada balki, 2007-yilda Yevropa ittifoqining (EI) rahbari sifatida ham faoliyat olib bordi. Siyosiy faoliyati davomida Germaniya tashqi siyosatda Yevropa Ittifoqi va NATOda ham xalqaro hamkorlikni hamda transatlantik iqtisodiy aloqalar (TEK-Qo'shma Shtatlar va Yevropa ittifoqi o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni yo'naltirish uchun tuzilgan organdir)ni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, 2008-yilda Merkel Berlin deklaratsiyasi bo'yicha muzokaralarni olib borishda va mavjud muammolarni ijobiy hal qilishda muhim rol o'ynadi[1]. U shuningdek, 2007-2008-yillardagi global moliyaviy inqiroz va 2009-yildan 2010-yillarning o'rtalarigacha Evropa Ittifoqida qarz inqirozini hal qilishda muhim rol o'ynadi. 2008-yil 26-noyabrda Yevropa Komissiyasi global moliyaviy inqirozning a'zo mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini bartaraf etish uchun 200 milliard yevro miqdoridagi "Yevropani rag'batlantirish rejasi"ni taklif qildi. Unda turg'unlikka qarshi kurashish uchun infratuzilma xarajatlari va davlat investitsiyalariga e'tibor qaratildi.

Merkelning ichki siyosatda Germaniyada atom energetikasidan foydalanishni bosqichma-bosqich to'xtatish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko'paytirishga intildi. 2010-yil sentabr oyida esa energetikani rivojlantirish maqsadida dasturini e'lon qildi. Bu dastur Germaniya tomonidan past uglerodli, ekologik xavfsiz, ishonchli va arzon energiya ta'minotiga o'tishni davom ettirishni nazarda tutardi. Uning yana bir islohoti muddatli harbiy xizmatni bekor qilgani bo'lib, buning natijasida Germaniyada 2011-yilda qisman qurolli kuchlarni "professionallashtirish" maqsadida harbiy xizmatga chaqirishni to'xtatib qo'yildi. Uning boshqaruv

davrida xalqaro maydondagi Yevropa muhojirlari inqirozi va Germaniyadagi COVID-19 pandemiyasi kabi global muammolar vujudga kelganligi bilan ham izohlanadi.

2014-yilda u Yevropa Ittifoqida eng uzoq vaqt xizmat qilgan amaldagi hukumat rahbariga aylandi. Germaniyadagi migrantlar, 2015-yil oktyabr.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2015-yil oxiri urushlar va ta'qiblar tufayli qochib ketganlar, majburiy ko'chirilganlar soni bo'yicha rekord o'rnatildi. Jami 65,3 million shaxs ko'chirilgan, ulardan 21,3 millioni qochqinlar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR) 1950-yilda tashkil etilganidan beri qayd etgan eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Xuddi shu yil davomida keng ko'lami inqiroz, faqat 107,100 qochqinlar rasmiy qayta joylashtirish dasturlari orqali qayta joylashtirish uchun qabul qilingan, holbuki, dunyo bo'ylab 3,2 million kishi boshpana uchun murojaat qilgan. Dunyo qochqinlarining aksariyati rivojlanayotgan o'nta mintaqada joylashgan[2]. Germaniya qochqinlarga o'z bag'rini ochdi. Qochqinlar Merkelning 2015-yilgi Yangi yil murojaatida asosiy mavzu bo'ldi: "Ko'pchilik tom ma'noda o'limdan qutulib qoldi. O'z-o'zidan ma'lumki, biz ularga yordam beramiz va bizdan panoh so'ragan odamlarni qabul qilamiz"-dedi. Yozda ularning soni ko'payganligi sababli, u Germaniyadagi qochqinlar boshpanalariga tashrif buyurdi. "Wir schaffen das"- "biz buni hal qila olamiz" Germaniya kansleri Angela Merkel tomonidan 2015-yilgi Yevropa muhojirlari inqirozi paytida Germaniya bu muammoni yengishi mumkinligi haqida aytgan.

Tadqiqot metodologiyasi. 2015-yilda Yevropaga boshqa davlatlardan kelgan muhojirlarning harakati yanada ham kuchaydi. Dunyo bo'yicha bu Suriyadan qochgan insonlar sifatida tanilgan. Shu yili Yevropadan boshpana so'raganlar asosan suriyaliklar edi[3]. Yevropa 2010-yilda Yaqin Sharq, Osiyo, Afrikaning ayrim qismlaridagi mojarolar,

xususan, Suriya, Iroq, Afg'onistondagi urushlar, shuningdek, Nigeriya, Pokistondagi terroristik harakatlar va uzoq vaqt davomida odamlar kelishini ro'yxatga olishni boshlagan edi. Uning hukumati Yevropa qoidalarini to'xtatdi ya'ni: Yevropa ittifoqiga ruhsatsiz kirish uchun Yevropa bo'ylab barmoq izlari, ma'lumotlar bazasini o'rnatadigan reglament-Dublin reglamenti. Uning o'rniga Merkel, agar suriyalik odamlar Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari orqali Germaniyaga kelgan bo'lsa, Germaniya ham boshqa so'rovlarini ham ko'rib chiqishini ma'lum qildi. O'sha yili bir million bir yuzga yaqin boshpana izlovchi Germaniyaga kirdi[4]. Koalitsiyaning kichik hamkori, vitse-kansler Zigmariel Gabriel Germaniya keyingi bir necha yil davomida har yili besh yuz ming odamni qabul qilishga imkoniyati borligini aytdi. Hukumatning muhojirlarning yangi to'loqini qabul qilishga Germaniya aholisining qarshiliklari kuchli edi va immigratsiyaga qarshi noroziliklar ham kuchayib bordi. Merkel Germaniyaning muhojirlar oqimi kurashish uchun iqtisodiy kuchi borligini ta'kidladi va Germaniya qancha bo'lsa ham muhojirlarni qabul qilishini yana bir bor takrorlagan. 2015-yil sentabr oyida butun mamlakat bo'ylab germaniyaliklar kelayotgan qochqinlar va muhojirlarni kutib oldi. Merkel Xristian Demokratik Ittifoqi qardosh partiyasi - Bavariyadagi Xristian-ijtimoiy ittifoq (CSU) rahbari va o'sha paytdagi Bavariya vaziri Horst Seehofer bo'linish va bir-biriga qarshi kurashish xavfi ostida bo'lgan tarixiy CDU/CSU ittifoqi bilan Konstitutsiyaviy sudga rasmiy shikoyat yuborish bilan tahdid qildi. Seehofer Merkelning muhojirlarni qabul qilish qarorini tanqid qildi. Seehofer Germaniyaga kelgan boshpana izlovchilarning 30 foizga yaqini Suriyadan ekanliklarini da'vo qildi, aslida boshqa davlatlardan ekanligini taxmin qildi[5]. Yevropa Ittifoqi majburiy qochoqlardan voz kechgan a'zo davlatlar uchun mablag'larini kamaytirishni taklif qildi. Ayni paytda, hukmron koalitsiyaning kichik hamkori, Sotsial-demokratik partiya (SPD) bosh kotibi Yasmin Faximi Angela Merkelning Vengriyadagi muhojirlarning Germaniyaga kirishiga ruxsat beruvchi siyosatini "Evropa qadriyatlarini qiyin sharoitlarda ham amalda ekanini ko'rsatuvchi insoniyatning kuchli signali" -deb baholadi[6]. 2015-yil noyabr oyida hukumat koalitsiyasi ichida muzokaralar olib borildi unga ko'ra: muhojirlar uchun oilalarni birlashtirishni ikki yilga to'xtatish, chegarada "Tranzit zonalari" tashkil etish va boshpana olish imkoniyati past bo'lgan muhojirlarni ariza topshirguniga qadar u yerda joylashtirish. Ushbu yangi choralarni ma'qullagan va ularsiz koalitsiyani tark etish bilan tahdid qilgan. CSU va ularga qarshi bo'lgan SPD o'rtasida ziddiyat mavjud. Merkel choralarga rozi bo'ldi. 2015-yil noyabr oyidagi Parij hujumlari (2015-yilning 13-noyabr kuni Fransiyaning Parij shahrida sodir bo'lgan muvofiqashtirilgan islomiy terrorchilik hujumlari) Germaniya rasmiylarining Yevropa Ittifoqining muhojirlarga nisbatan siyosatiga nisbatan pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga turki bo'ldi. Merkeldan tashqari rasmiylar o'rtasida muhojirlarni Germaniyadagi missiyasi yuzasidan tekshirishda yuqori darajadagi tekshiruv zarurligi to'g'risida konsensus mavjud edi. Biroq, muhojirlarning kirishi cheklanmagan bo'lsada, Merkel Germaniyada boshpana berish siyosatini kuchaytirdi. 2016-yil oktyabr oyida Merkel Mali va Nigerga rasmiy tashrif bilan bordi. Diplomatik tashrif davomida ularning hukumatlari odamlarning o'sha mamlakatlardan qochishiga sabab bo'lgan sharoitlarni qanday yaxshilashi va bu davlatlar orqali undan noqonuniy migratsiyani qanday kamaytirish mumkinligi muhokama qilindi. Germaniya bo'ylab muhojirlarning kirib kelishi o'ng qanot saylov imtiyozlarini oshirdi va Germaniya uchun alternativ (AfD)2017-yilgi Germaniya federal saylovida 12 foiz ovoz oldi[7]. Ushbu voqealar Germaniyada o'ng qanot populizmining kuchayishi sabablari haqida munozaralarga sabab bo'ldi. Yevropa muhojirlari inqirozining natijasida o'ng qanotlar imtiyozlarining kuchayishi minglab odamlarni, asosan musulmon davlatlaridan Germaniyaga olib kelgan va

nemislar ulushida qochqinlar Germaniya uchun etnik va madaniy tahdid degan fikrni uyg'otgan. 2018-yil mart oyida CSU Xorst Seehofer ichki ishlar vaziri lavozimini egalladi. Seehofer e'lon qilgan siyosati shundan iboratki, u "tezroq boshpana berish tartib-qoidalari va izchil deportatsiyalar uchun bosh reja"ga ega edi. Seehoferning rejasiga ko'ra, Germaniya allaqachon deportatsiya qilingan yoki kirishi taqiqlangan muhojirlarni rad etadi va politsiyaga Yevropa Ittifoqining boshqa joylarida ro'yhatdan o'tgan barcha muhojirlarni, agar bu davlatlar ularni qaytarib olishga rozi bo'lishidan qat'iy nazar, qaytarishni buyuradi. Merkel muhojirlarni qo'shni davlatlarga bir tomonlama tartibda qaytarib yuborish, Yevropa Ittifoqi barqarorligiga xavf tug'dirishidan qo'rqdi.

Seehofer 1-iyul kuni Yevropa darajasida yechim topgunga qadar immigratsiya siyosati bo'yicha kelishmovchilikda uni chetlab o'tish tahdididan voz kechdi. 2018-yilning 1-iyulida Seehofer Merkelning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan erishgan kelishuvini juda kam deb rad etdi va partiyasi iroiya organi yig'ilishida iste'foga chiqishini ma'lum qildi, biroq ular buni qabul qilishdan bosh tortdilar. 2018-yilning 2-iyuliga o'tar kechasi Seehofer va Merkel o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etganliklarini e'lon qilishdi va buning o'rniga chegara nazoratini kuchaytirish bo'yicha murosaga kelishdi. Kelishuv natijasida, Seehofer iste'foga chiqmaslikka rozi bo'ldi va aniq davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar bo'yicha muzokaralar olib bordi. Seehofer hukumatni deyarli yiqitgani uchun tanqid qilindi, shu bilan birga ushbu siyosat tomonidan nishonga olingan muhojirlarning oylik soni bitta raqamda edi.

Tahlil va natijalar. Angela Merkel 2015- va 2016-yillardagi muhojirlar inqirozi davrida, zo'raonlik va zulm xavfi ostida qolgan 1,2 milliondan ortiq muhojir va boshpanasiz insonni, o'z yurtiga qabul qilgani uchun, BMTning "Nansen" nomidagi muhojirlar mukofotiga sazovor bo'ldi. Shveysariyaning Jeneva shahrida bo'lib o'tgan taqdirlash marosimida nutq so'zlagan Merkel, mukofotni yordamsevar insonlar nomidan olganini qayd etdi va shu doirada hizmat qilgan va nodavlat notijorat tashkilotlarga minnatdorlik bildirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qochqinlar bo'yicha Oliy komissari Filippo Grandi o'z uylarida ayovsiz janglardan qochishga majbur bo'lgan ko'pchilikning omon qolishi va o'z hayotlarini tiklashiga yordam berishda "buyuk ma'naviy va siyosiy jasorat" ko'rsatgani uchun Merkel honimni olqishladi. O'z mamlakatini 16 yil boshqargan, 2021-yili iste'foga chiqqan sobiq olim 2015-va 2016- yillardagi mojaro avjiga chiqqanda, boshqa davlatlar ulardan yuz o'g'irgan paytda umidsiz suriyaliklarni kutib oldi. O'sha paytda u vaziyatni "bizning Yevropa qadriyatlarimizni ilgari kamdan-kam hollarda sinovdan o'tkazish"- deb ta'riflagan. "Bu insonparvarlik imperatividan ko'p va kam emas edi"- dedi u o'sha paytda. U o'z vatandoshlarini millatchilikni rad etishga chaqirib, ularni "o'ziga ishongan va erkin, rahmdil va ochiq fikrli" bo'lishga chaqirdi[8]. BMT Qochqinlar ishi bo'yicha oliy komissarlik rahbari sobiq kanslerning boshpana izlovchilarni himoya qilish va inson huquqlari, insonparvarlik tamoyillari va xalqaro huquqni himoya qilish borasidagi qat'iyatini yuqori baholadi. "Bu haqiqiy yetakchilik, bizning umumiy insoniyatimizga murojaat qilish, qo'rquv va kamsitishni targ'ib qilganlarga qarshi qattiq turish edi"- dedi u. U siyosatchilar to'g'ri yo'l tutsa va mas'uliyatni boshqalarga o'tkazib yubormasdan, dunyo muammolariga yechim topishga harakat qilsa, nimaga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Angela Merkel mavzusini o'rganar ekanman, ayol sifatida juda hurmatim ortdi. Dunyoda qanday muommo, qanday yechilmagan masalalar va kimga qanday masalalarda yordam kerak bo'lsa, Merkel honim doimo yordamga shoshiladi. Yevropaning eng nufuzli davlat rahbarlari, siyosatchi, olimlar ham u bilan maslahatlashib ish qilishadi. Hattoki, eng qiyin vaziyatlarda ham hech narsadan

cho‘chimasdan olg‘a intiladi. Gretsiya inqirozi, Yevropada muhojirlar inqirozi, pandemiya sharoitlarida va hattoki, Afg‘onistondagi qiyin vaziyatlarda ham yordam bergan. Gender tengligi masalasida ayollar rahbar sifatida qanday natijalarga erishishi mumkinligini butun dunyoga isbotladi.

Har yili norvegiyalik tadqiqotchi, olim, diplomat va qochqinlar bo‘yicha birinchi Oliy komissar Fridtjof Nansen nomi bilan atalgan 2022-yilgi BMTning Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligining Nansen qochqinlar mukofoti qochqinlarni himoya qilish bo‘yicha burchini haddan tashqari oshirgan shaxs, guruh yoki tashkilotga beriladi. Tanlov komissiyasi Merkel xonimning “yuz minglab umidsiz odamlarning himoyasini ta‘minlashdagi yetakchiligi, jasorati va rahm-shafqatini”, shuningdek, xavfsizlikni qidirayotganlar uchun “hayotiy uzoq muddatli yechimlar” topishdagi sa‘y-harakatlarini tan oldi[9]. Urush, ta‘qiblar va inson huquqlari buzilishidan qochishga majbur bo‘lganlarni himoya qilishdan tashqari, sobiq kansler Germaniya ta‘limi va o‘qitish dasturlari, bandlik sxemalari va mehnat bozori integratsiyasi

orqali ularni qabul qilish va jamiyatga integratsiyalashuviga yordam berish bo‘yicha jamoaviy sa‘y-harakatlarining harakatlantiruvchi kuchi edi. U shuningdek, Germaniyada qochqinlarni joylashtirish dasturini kengaytirishga rahbarlik qildi va mamlakatning muhim, ishonchli, faol gumanitar sherik sifatida o‘shishini ta‘minlashda, jumladan, butun dunyo bo‘ylab qochqinlar operatsiyalarida muhim rol o‘ynadi. Uning siyosati ham, ommaviy bayonotlari ham boshpana va majburiy ko‘chirilishni boshqarish masalalari bo‘yicha Yevropa va global munozaralarda ijobiy kuch bo‘ldi. 2004-yildan beri Amerikaning biznes jurnali Forbes har yili dunyodagi eng kuchli 100 ta ayol ro‘yxatini tuzadi. U taniqli Forbes jurnalistlari, jumladan Moira Forbes tomonidan tahrirlangan ko‘rinish va iqtisodiy ta’sirga asoslangan. Germaniyaning sobiq kansleri Angela Merkel 2006-yildan 2020-yilgacha birinchi o‘rinda turdi[10]. Faqatgina 2010-yilda bu o‘rinda boshqa ayol edi. Bir so‘z bilan aytganda dunyo e‘tiborini o‘ziga qarata olgan buyuk ayol. Shunday ayollar borligidan faxrlanamiz.

ADABIYOTLAR

1. Vick, Karl (2015). "Time Person of the Year 2015: Angela Merkel".
2. Maissaa Almustafa "Reframing refugee crisis: A "European crisis of migration" or a "crisis of protection"? Environment and Planning C: Politics and Space Volume 40, Issue 5 Pages: 1064 – 1082, Article first published online: February 4, 2021
3. "Angela Merkel faces outright rebellion within her own party over refugee crisis" The Telegraph. Archived from the original on 25 January 2019. Retrieved 24 January 2016.
4. Ayaz, Ameer; Wadood, Abdul (2020). "An Analysis of European Union Policy towards Syrian Refugees". Journal of Political Studies. 2020, Vol. 27 Issue 2, p01-19. 19p.
5. Holehouse, Matthew; Huggler, Justin; Vogt, Andrea (24 August 2015). "Germany drops EU rules to allow in Syrian refugees"
6. "Refugee crisis: Many migrants falsely claim to be Syrians, Germany says as EU tries to ease tensions Archived 8 November 2020 at the Wayback Machine". Daily Telegraph . 2015 yil 25 sentyabr
7. "Merkel splits conservative bloc with green light to refugees". Reuters. 6 September 2015. Archived from the original on 9 October 2015. Retrieved 10 January 2016.
8. Lucassen, Geertje; Lubbers, Marcel (2012). "Who Fears What? Explaining Far-Right-Wing Preference in Europe by Distinguishing Perceived Cultural and Economic Threats". Comparative Political Studies.
9. "Angela Merkel awarded the 2022 Unesco Peace Prize for her efforts to welcome refugees". The Brussels Times. Retrieved 24 August 2022. .
10. Noer, Michael; Perloth, Nicole (11 November 2009). "The World's Most Powerful People". Forbes. Retrieved 2009-11-16.



UDK:930

Maxsuda TURSUNBOYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti(PhD)
TerDU dotsenti, t.f.d. N.Tursunov taqrizi asosida

TURKISTONDAGI TABIIY OFATLARNING MUSTAMLAKA DAVRIDA O‘RGANILISHI TARIXI (1870-1917-YILLAR)

Annotatsiya

Maqolada Turkistondagi tabiiy ofatlar masalasi tarixiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Shuningdek, zilzilar, suv toshqinlari, qum bo‘ronlari, kuchli yomg‘irlar hamda faslga xos bo‘lmagan tabiiy ofatlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Turkiston, tabiiy ofat, suv toshqinlari, qurg‘oqchiik, uchinchi dunyo, 1916 yilgi qo‘zg‘olon, Birinchi Jahon urushi, sovet davri.

HISTORY OF THE STUDY OF NATURAL DISASTERS IN TURKESTAN DURING THE COLONIAL PERIOD (1870-1917)

Annotation

The article examines the issue of natural disasters in Turkestan from a historical point of view. Earthquakes, floods, sandstorms, heavy rains and unseasonal natural disasters are also discussed.

Key words: Central Asia, Turkestan, natural disaster, floods, drought, third world, uprising of 1916, First World War, Soviet period.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ СТИХИЙНЫХ БЕДСТВИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД (1870-1917 ГГ.)

Аннотация

В статье рассматривается вопрос о стихийных бедствиях в Туркестане с исторической точки зрения. Также обсуждаются землетрясения, наводнения, песчаные бури, проливные дожди и несезонные стихийные бедствия.

Ключевые слова: Средняя Азия, Туркестан, стихийное бедствие, наводнения, засуха, третья мировая, восстание 1916 г., Первая мировая война, советский период.

Kirish. Tabiiy ofatlar barcha davrlarda insoniyat uchun katta zararlar olib kelgan. Shu sababli ushbu masalani o‘rganish har doim insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ko‘plab tabiiy ofatlar yuz bergan. Bularga zilzilar, suv toshqinlari, qum bo‘ronlari, kuchli yomg‘irlar hamda faslga xos bo‘lmagan sovuqlik yoki issiqlikni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Mazkur mavzu tarixshunosligiga e‘tibor bersak, sovet hamda mustaqillik davrida ushbu masala kam o‘rganilgan. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Jumladan, bir guruh olimlar o‘tgan zamonda yuz bergan tabiiy ofatlar tarixini asosan zamonaviy fanning tarixi tushuntirib berish uchun foydalangan bo‘lsa, boshqa guruhdagi olimlar kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlarni tadqiq etishni ma‘qul ko‘rmoqda. Boshqa tomondan, o‘tgan tarixda yuz bergan tabiiy ofatlardan saboq chiqarish va salbiy oqibatlarining oldinini olish uchun tabiiy ofatlar tarixini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1870-1917-yillarda Turkistonda sodir bo‘lgan tabiiy ofatlar o‘sha davr olimlari va tadqiqotchilari tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, davriy matbuot hamda rasmiy hisobotlarda ma‘lumot va ma‘ruza sifatida berib o‘tilgan. Bugungi kunda ushbu materiallarni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur davrda Turkistonning seysmik holati tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar ayrim hollarda ma‘ruza sifatida taqdim etilgan. Keyinchalik ushbu ma‘ruzalar maqola yoki kitob sifatida chop etilgan. Mazkur amaliyot ayniqsa Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limida yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, bir qancha tadqiqotchilar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo‘lgan zilzilalarni o‘rgangan. Shulardan biri A. Auzan bo‘lgan. Uning Turkistonning seysmik holati to‘g‘risidagi tadqiqoti Rus geografik jamiyatining nashrida chop etilgan. U asosan Turkistondagi seysmik holatni mavjud seymik stansiyalardan olingan ma‘lumotlar asosida ko‘rsatishga harakat qiladi. Mazkur davrda Toshkent,

Samarqand, Verniy va O‘sh shaharlarida seysmik kuzatuv stansiyalari mavjud bo‘lgan. A. Auzan o‘zining tadqiqotini Turkistonda seysmik holatni aniqlashdagi muammolarni tahlil qilib o‘tadi. Uning asosiy tanqidi mavjud bo‘lgan kuzatuv stansiyalarning har doim ham zilzilarni aniqlash va yer silkinishlar vaqtida olgan kam sonli ma‘lumotlariga qaratilgan edi[1]. Aslida uning tanqidi o‘rin bo‘lgan.

Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning turli qismlarida zilzilarni oldindan aniqlash uchun seysmik observatoriyalar mavjud bo‘lgan. Biroq, ular har doim ham zilzilarni oldindan aytib bera olmagan. Masalan, 1896-yil-25 yanvar kunduzi soat 1 dan 32 daqiqa o‘tganda zilzila sodir bo‘lgan. Bu yer silkinishi 3 balni tashkil etgan va 20 soniya davom etgan. Biroq, Toshkent shahridagi seysmik observatoriya ushbu zilzilani qayd etmagan. Yana bir misol Pomir seysmik observatoriyasi bilan bog‘liqdir. 1896-yil 3-yanvardan 4-yanvarga o‘tar kechasi soat 12 da Pomirda kuchli zilzila sodir bo‘lgan. Biroq Pomirda joylashgan seysmik observatoriya buni aniqlay olmagan [2].

Shuningdek, A. Auzan Rossiya imperiyasidagi seysmik komissiyalarning boshqaruv holati va huquqlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadi. Ushbu qismda tadqiqotchi asosan mazkur boshqaruv tizimi seysmik tizimni rivojlantirishga har doim ham javob bermaganligiga e‘tibor qaratadi. Ikkinchi tomondan, mazkur seysmik stansiyalar va seysmik komissiyalarning faoliyatini to‘liq amalga oshirishga moliyaviy qiynchiliklar ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan[3]. Bu holatga A. Auzan alohida to‘xtalib o‘tgan. Shundan so‘ng A. Auzan ishning ilmiy qismiga o‘tgan. Ushbu qismda asosan Turkiston misolida zilzilarning yuzaga kelish sabablari to‘g‘risida to‘xtalangan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Rus geografik jamiyatining Turkiston bo‘limi tadqiqotchilari o‘lkada sodir bo‘lgan zilzilarni ham o‘rganib borgan. Ular asosan yuqori balli zilzilar hamda katta talofat yetkazgan yer silkinishlari to‘g‘risida ham izlanishlar olib borgan. Shunday zilzilardan

biri 1897-yil 5-sentabrda Turkistonning katta qismida sodir bo'lgan. Mazkur zilzila 5-sentabrdan 6-sentabrga o'tar kechasi yuz bergan. Mazkur vaqtda odamlar o'z uylarida uxlab yotgan bo'lgan. Yer silkinishi natijasida odamlar ko'chaga chiqqan va uzoq vaqt o'z uylariga kirishga qo'rqqan. Rus geografik jamiyati Turkiston bo'limiga Jizzax uyezdidan zilzila oqibatlarini to'g'risida ma'lumotlar kelgan. Ular orasida zilzila natijasida yer yorilganligi to'g'risida ham ma'lumot bor edi. Tadqiqotchilar ushbu holatni tekshirish uchun Jizzax va Xo'jand uyezdlariga boradi. O'rganishlar natijasida haqiqatan ham ushbu uyezdlarda yer yorilganligi aniqlangan[5]. Natijada geografik jamiyat Turkiston general-guyuyernatorligining Harbiy-Topografik bo'limi boshlig'iga bu to'g'risida xabar beradi.

Boshqa tadqiqotlar O'rta Osiyoda sodir bo'lgan zilzilarni ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lgan. Mazkur ishlar ham asosan Rus geografik jamiyatining Turkiston bo'limi nashrlarida chop etilgan. Shunday ishlardan biri 1911-yildan Pomirda sodir bo'lgan zilzilani tadqiq etishga qaratilgan bo'lgan. Pomir zilzilasi alohida tadqiqot sifatida o'rganilganligiga bir qancha sabablar bo'lgan. Birinchidan Pomir seysmik faol hudud hisoblangan va u yerda maxsus kuzatuv ishlari doimo olib borish imkonini mavjud bo'lgan. Bu holat o'sha davr tadqiqotchilariga O'rta Osiyodagi zilzilani tadqiq etishga imkon bergan. Eng asosiy sabab 1911 - yildagi zilzila juda qattiq bo'lgan bo'lib, hatto zilzila natijasida bir qancha gumanitar va geografik o'zgarishlar yuz bergan.

Mazkur zilzila 1911- yilda 5- fevralda kechasi soat 11 dan 15 daqiqa o'tganda yuz bergan. Mazkur zilzila kuchli bo'lganligi sababli Pomirdagi ikkita qishloq yo'q bo'lib ketgan. Ulardan biri Usay qishlog'i bo'lgan. Yer silkinishi kuchli bo'lishi natijasida toshlarning yorilishi sababli tog' yonida joylashgan qishloq aholisining barchasi chorva mollari bilan birgalikda halok bo'lgan. Pomirda Bartanga daryosi oqib o'tgan. Bu daryodan to'g'on qurilgan bo'lib, keyinchalik ko'llar ham hosil bo'lgan. Mazkur to'g'onning suvi yuqori balandlikka yetgan bo'lgan. Zilzila natijasida ushbu to'g'ondagi suvlar toshib ketadi hamda yaqinida joylashgan Sarez qishlog'ini yuvib ketadi. Buning oqibatida qishloq aholisi halok bo'ladi[6].

Mazkur davrda nafaqat Turkistonda yuz bergan zilzilalar, balki ularning sabablarini tadqiq etishga bag'ishlagan ilmiy sharhlar ham chop etilgan. Masalan, Turkestanskiye vedomosti gazetasining 1887-yilgi sonlaridan birida Yevropa davlatlarida zilzilalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga kelganligi to'g'risida tahlil maqola chop etiladi. Mazkur maqoladagi ilmiy xulosalar O'rta Osiyoda yuz bergan zilzilar bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qilinadi. Jumladan, 1868- va 1886-yillarda Toshkent yuz bergan zilzilalar ilmiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, A. Orlov tomonidan nashr etilgan "Zemletryaseniya i ix sootnosheniya s drugimi yavleniyami prirodi» nomli ilmiy asarida Turkistondagi zilzilar haqidagi ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatib o'tilgan. Unda har 100 yilda Turkiston shaharlarida solir bo'ladigan zilzilar o'lchovi kun hisobida berib o'tilgan.

Xususan, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, har 100 yilda Buxoroda zilzilar 0,28 kun, Samarqandda 6,66 kun, Qo'qonda 3,57 kun, Toshkentda 186,6 kun, Namanganda 40 kun hamda Andijonda 50 kun davom etishi ilmiy xulosa sifatida keltirilgan[7].

Tabiiy ofatlar to'g'risidagi ishlar nafaqat tadqiqotchilar tomonidan balki rasmiy shaxslar tomonidan ham e'lon qilinib borilgan. Boshqacha aytganda, XIX asr o'xiri - XX asr boshlarida mustamlaka amaldorlari o'z hududlarida sodir bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risida ma'lumotlarni yetkazib turgan. Ushbu ma'lumotlar odatda kitob holatida chop etilgan. Shulardan biri Samarqand viloyati bo'yicha nashr etilgan so'rovnomaga kitobi bo'lib, u har yili chop etilgan. 1912- yilgi nashrida Samarqand viloyatida 1907 va 1909- yillarda sodir bo'lgan zilzilar haqida ma'lumotlar berilgan[8].

Davriy matbuotda Turkistonda sodir bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risida ma'lumotlar berib borilgan. Bugungi kunda ushbu materiallarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining 1885-yilgi sonlaridan birida Naimangan uyezdidagi tabiiy ofat to'g'risida ma'lumot berilgan. Unga ko'ra, Namangan uyezida 1885 - yilning bahor oylari boshqa yillarga qaraganda sovuqroq keladi. Bu ko'proq bahor fasli emas, balki qish fasliga o'xshagan. Hatto 14-mart kuni ertalab qor yog'adi va bu kechgacha davom etgan. Natijada qor butun endi kurtak otayotgan daraxtlar va ekinlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu vaqtga kelib allaqachon o'rik daraxtlari gullagan bo'lgan va shu sababli ushbu meva hosiliga katta zarar yetgan. Bundan tashqari, aholi faslga hos bo'lmagan sovuq kunlar uchun o'zlarning dehqonchilik va boshqa yumushlarini bajara olmagan.

Bundan tashqari, mazkur yilning yoz fasli ham bir qancha ob-havo noqulayliklari bilan o'tgan. Xususan, yoz fasli juda issiq bo'lgan. Boshqa tomondan, ayrim vaqtlari shaharlarda qum bo'ronlari bo'lib turgan bo'lsa, ayrim vaqtlari yomg'ir yog'gan. Bo'ron asosan iyun oyiining birinchi yarmida sodir bo'lgan. Mazkur bo'ronning boshqa yillardagi bo'ronlardan farqi shu bo'lganki, u bir necha kunlab davom etgan hamda har kuni ertalab havo sariq rangga kirib qolgan. Natijada hovlilarda turgan aholining mebel va turli buyumlarini qalin chang qoplagan. Shamol esa ushbu qumlarni turli joylarga tarqatgan. Ayrim kunlari kechqurun yomg'ir yog'gan va ushbu yomg'ir daraxtlardan qumlarni tozalab qo'ygan. Biroq, aholining hovlida turgan buyumlariga zarar yetgan[9].

Xulosa va takliflar. Hozirgi kungacha Turkistondagi tabiiy ofatlar masalasi tarixiy nuqtai nazardan o'rganilgan emas. Mavzu tarixshunosligi ko'rsatadiki, tabiiy ofatlar masalasi asosan 1870-1917- yillar oralig'ida tadqiq etilgan. Bunga asosiy sabab mazkur davr tadqiqotchilari tabiiy ofatlarni joylarga borib o'rganish va shu orqali ilmiy yechim topishga harakat qilishgan. Biroq, ularning maqsadlari mazkur mavzuni tarix nuqtai-nazaridan o'rganish bo'lmagan. Shunday bo'lsada, bugungi kunda ushbu tadqiqotlar va ma'lumotlar tabiiy ofatlar tarixini tadqiq etishda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Сейсмическая часть в России и Туркестане. // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Том 10, Выпуск 1, 1914. С. 186-188.
2. Землетрясения в Ташкенте. Правительственный вестник. 1896. № 23.
3. Сейсмическая часть в России и Туркестане. // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Том 10, Выпуск 1, 1914. С. 188-189.
4. Сейсмическая часть в России и Туркестане. // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Том 10, Выпуск 1, 1914. С. 189-201.
5. Леонов Б. Землетрясения в Туркестанском крае 5-го сентября 1897 года. // Туркестанский сборник. Том 473, с. 59.
6. Землетрясение 1911 года на Памирах и его последствия. // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Том 10, Выпуск 1, 1914. С. 202-220.
7. М-в. Н. Библиографические заметки. // Туркестанские ведомости. 1887. № 49.



Bozorgul O'RINOVA,
Turon Zarmed Universiteti
E-mail: bazargul-urunova@buxtzu.uz

BuxDU professori, t.f.d. S.I. Inoyatov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE PRESS IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE AND SOCIETY

Annotation

This article highlights the role and place of the media, especially the press, in the development of the state and society. Significant renewal processes in the national media will be analyzed in the context of the independence of Uzbekistan.

Key words: State, society, people, spirituality, party, nation, mass media, historical, modern.

РОЛЬ ПРЕССЫ В РАЗВИТИИ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье освещаются роль и место средств массовой информации, особенно прессы, в развитии государства и общества. Будут проанализированы значимые процессы обновления в национальных СМИ в контексте независимости Узбекистана.

Ключевые слова: Государство, общество, народ, духовность, партия, нация, СМИ, историческое, современное.

DAVLAT VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MATBUOTNING ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari, ayniqsa matbuotning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli ko'rsatib o'tiladi. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy matbuot vositalaridagi muhim yangilanish jarayonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, xalq, ma'naviyat, partiya, millat, ommaviy axborot, tarixiy, zamonaviy.

Kirish. Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati to'g'risida so'z yuritilganda, avvalambor, matbuot inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi ekanligini hisobga olish lozim bo'ladi. Chunki uning darajasi jamiyatda demokratiya nechog'lik ekanligini ko'zgudek o'zida aniq aks ettiradi. Ana shu bois butun dunyo xalqlari so'z va matbuot erkinligini g'oyatda qadrlaydi.

Yetmish yildan ortiqroq vaqt mobaynida mustabit sho'ro tuzumi changalida bo'lgan, endilikda milliy istiqloлга erishib, davlatchilik asoslarini, jumladan, ommaviy axborot vositalari tizimi "to'rtinchi hokimiyat" sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechirayotgan O'zbekiston uchun ham erkin matbuotning qadri alohida ahamiyatga ega.

"Eng asosiysi, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish va jurnalistlarning kasbiy faoliyatini kuchaytirish"[1]. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda boshlangan asr realliklari davlatlarning xalqaro faoliyati uslubini, jumladan, ommaviy axborot vositalari (OAV) sohasidagi faoliyatini tubdan o'zgartirishga majbur qilmoqda."Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lishi darkor. Hozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustida jamoat nazoratini, davlat hamda mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy axborot vositalarining mavqeyini kuchaytirish zarur. Ayni shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini himoya qilishlari, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim" [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Keyingi yillarda O'zbekiston matbuoti tarixiga oid, shuningdek, mustaqilligimizning dastlabki yillari tarixiga bag'ishlangan fundamental asarlar ham yaratildi. Jurnalistika tarixi bilan shug'ul-

lanuvchi olimlar: B.Do'sqoraev, F.Mo'minov, T.Ernazarov, Yo.Mamatova, N.Qosimovalarning kitob va darsliklari o'zbek matbuotchiligi va jurnalistikasi tarixini tadqiq qilishda muhim qadamlardan bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari vaqti matbuot tarixi, nazariyasi, amaliyoti bilan bog'liq bir qator dissertatsiya tadqiqotlarini tayyorlash borasida ham izlanishlar olib bordilar. Ularning ayrimlari bevosita davriy matbuot tarixi, nazariyasi masalasi taalluqli bo'lsa, qolganlarida ushbu masalalar boshqa muammolar bilan uyg'unlikda hal etilgan. A. Karimov, A. Andaqulov va boshqalar tomonidan "Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari" nomli kitobining nashrdan chiqishi jurnalist xodimlarni Respublika matbuoti sohasidagi qo'lga kiritilgan yutuqlar va yangiliklardan xabardor qildi. Shuningdek Buxoro viloyatida chop etilayotgan "Buxoronoma" gazetasining xodimlari va jamoatchi muxbirlari tomonidan uning 20 000- soni nashr etilishi munosabati bilan bog'liq "20 000- uchrashuv" nomli publitsistik risola chop etildi. Ushbu risolada "Buxoro axbori" 1- soni chop etilgan 1920- yil sentyabrdan 2007- yilning dekabriga qadar chiqqan matbuot organlari va bugungi kunda "Buxoronoma" nomi ostida chiqayotgan gazetaning faoliyatida ishtirok qilgan muharrir va muxbirlar hayoti haqida maqola va tarixiy lavhalar keltirilgan. Bu risola Buxoro matbuotchilik tarixi solnomasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning usullari sifatida ishda tarixiy tamoyil, tizimli yondashuv, obektivlik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, tarixiy xronologik, analiz va sintez aniq tarixiy sharoitda raqam va dalillarga tayanish kabi metod hamda usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Matbuot xalq hayotining ko'zgusi. Shu jihatdan olib qaraganda, hech bir zamonda OAV ga hozirgidek e'tibor va rag'bat ko'rsatilmagan. Negaki matbuot hech bir zamonda mustaqillik davridagidek chinakam milliylik kasb etmagan. Ilgari u mustabit tuzumning xalqimiz tabiatiga yot hukumron g'oyasini targ'ib qilishga mahkum edi. Bugun o'zbek matbuoti, eng avvalo, mustaqil mamlakatimiz

va insonlarimizning himoyachisi, davlat va jamiyat o'rtasidagi xolis vositachisi sifatida faoliyat yuritmoqda. "Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas" [3].

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy-ma'rifiy yangilanish va fikriy-g'oyaviy uyg'onish, milliy taraqqiy nishonalari avvalo matbuotda o'z aksini topadi. Bugina emas, aynan matbuot jamiyat fikrini uyushtiradi, fuqarolar ongiga kuchli ta'sir etib, mamlakatda va dunyoda yuz berayotgan voqea - hodisalar mohiyatini tushuntirishga yordam beradi, xabardor qiladi, tarbiyalaydi.

Ayniqsa jonajon vatanimiz O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ommaviy axborot vositalarining roli va ahamiyati yanada oshdi. Chinakam milliy ruhdagi matbuot shakllandi. Bir tomondan, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish, eski totalitar tuzumdan yangi demokratik tuzumga o'tish muammolarini yoritish, davlatimiz siyosatini xalqqa to'g'ri yetkazish zarurati, ikkinchi tomondan ma'naviy-milliy qadriyatlarini tiklash, tariximizni xolisona va odilona baholash, ajdodlarimiz qoldirgan buyuk ma'naviy me'rosni targ'ib etish, uni yosh avlod qalbiga singdirish vazifasi turadi.

Matbuotimiz ulug' tarixiy burilishlarga xos ana shu vazifani sharaf bilan uddaladi. Ilgaridan tajriba orttirgan gazeta va jurnallar: "O'zbekiston ovozi", "O'zbekiston adabiyoti va sa'nati", "Toshkent oqshomi" gazetalari, "Guliston", "Sharq yulduzi", "Yoshlik" jurnallari qatoriga yangi ta'sis etilgan "Xalq so'zi", "Fidokor", "XXI asr ovozi", "Tafakkur", "Jahon adabiyoti" singari yangi matbuot nashlari qo'shildi. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari soni misli ko'rilmagan darajada oshdi. Bugungi kunda nashrlar soni ko'payibgina qolmasdan, jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishida ularning ahamiyati va tutgan o'rni ham ortib bormoqda.

1991- yilda O'zbekistonda 351 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir ularning soni 2 mingga yaqinlashib qoldi. Agar 1991-yilda faqat birta teleradiokompaniya ish yuritgan bo'lsa, hozir 70 ta teleradiostudiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning aksariyati nodavlat, mustaqil tarmoq, xususiy, reklama yo'sindagi gazeta va jurnallardir. Bundan tashqari so'nggi yillarda O'zbekistonda bir qator nashriyot va matbuot uylari tashkil etildi. Shu o'rinda hozirgi paytda aksariyat nashrlar o'zini-o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlashga o'tayotganini alohida ta'kidlash lozim. Matbuot yangi tipologiyasining shakllanishi asosan ikki omilga: o'quvchi mushitariylar ehtiyoji va ta'sis etuvchilarning shart-sharoitlariga asoslanadi.

O'zbekistonda matbuot organini ta'sis etuvchi muassasalarga: Oliy Majlis, Vazirlar mahkamasi, vazirliklar, qo'mitalar, Hokimklar, siyosiy partiyalar, xalq harakatlari, Kasaba uyushmalari, ijodiy uyushmalar, ilmiy va o'quv muassasalari, tijorat tizimlari, turli jamg'armalar, reklama agentliklari, ijtimoiy-diniy, ekologik tashkilotlar kiradi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda axborot makonida haqiqiy fikrlar xilma-xilligi shakllanib bormoqda. Jumladan, yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir siyosiy partiya o'z gazetasiga ega. Bu o'rinda "O'zbekiston ovozi", "Milliy tiklanish", "Fidokor", "Adolat", "XXI asr", kabi gazetalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Shuningdek, bu davrda mamlakatimiz yangi nashrlari - "Xaq so'zi", "Hurriyat" gazetalari chop etila boshlandi. Ayni paytda yangi iqtisodiy yo'nalishdagi, bank tizimidagi o'zgarishlar va iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish bilan bog'liq masalalarni yorituvchi alohida jurnalistika tizimi ham shakllanmoqda. Qolaversa diniy-marifiy saboqlar beruvchi

yo'nalishdagi "Islom nuri", "Imom al-Buxoriy saboqlari", "Movarounnahr musulmonlari" kabi nashrlar paydo bo'ldi [4].

Ayni chog'da "Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllanishida matbuot qanday vazifani bajaradi? degan savol tug'iladi" - deb yozadi R. Mahkamov [5]. Uning fikricha u birinchi navbatda, fuqarolar jadal suratlarida o'zgarayotgan dunyoda mo'ljal olishga, shuningdek, boshqa fuqarolar, ijtimoiy institutlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishiga yordam berish uchun ularga yuz berayotgan voqealar, jarayon va hodisalar haqida ularga axborot berib turadi. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari o'z maxsulotlaridan foydalanuvchilarga ro'y berayotgan voqea-hodisalarni mustaqil baholash qobiliyatini shakllantirish hamda ularga siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga tayyorgarlikni tarbiyalashi shart. Shunday qilib ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatida jamiyat va hokimiyat o'rtasida aloqa o'rnatadi, jamoatjilik fikrini ifodalash va hokimiyatga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Umuman, mamlakatimizda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning muhim sharti-bu, avvalambor, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni hayotga tadbiiq etish bo'yicha yanada aniqroq va izchilroq choralarni belgilash va amalga oshirish bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, "O'zbekiston XX asrning so'nggi yilligida mustaqil davlat sifaida jahon hamjamiyatidan o'zining munosib o'rini topdi. Ulkan texnik taraqqiyot, shu bilan bir vaqtda, olamshumul voqea-hodisalar, qirg'inbarotlaru, siyosiy qaltisliklarga boy bo'lgan yuz yillik nihoyasida o'z istiqloqligiga erishgan O'zbekiston oldida bir siyosiy tizimdan boshqasiga o'tishdek murakkab va mas'uliyatli vazifa ko'ndalang bo'ldi. Xuddi shu ulkan vazifalar qatorida respublikada ommaviy axborot vositalari tizimini butkul yangi va zamonaviy talablarga asosida qurishdek tarixiy maqsadlar ham bor edi [6].

Xulosa va takliflar. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lga qadam qo'yan dastlabki kunlardan boshlab, davlatimiz rahbari va hukumatimiz matbuotning davr taqazosi bilan yuzaga kelgan bir qancha yangi vazifalarni belgilab berdi. Ayniqsa yangi jamiyat qurish vazifasi qo'yilayotgan bir davrda matbuot ommaning siyosiy ongini o'stirish bilan birgaikda ularning iqtisodiy jihatdan tarbiyalashga, davlat va jamiyat qurilishiga safarbar etishga etiborini oshirish lozimligini uqtirib o'tdiki, bu hozirgi yangilanish, qayta qurish bosqichining shioriga aylandi. Umuman olganda, istiqloq bergan oliy qadriyatlardan biri - so'z erkinligi, fikr erkinligidir darhaqiqat, fikr erkin bo'lgandagina inson o'zini chinakamiga o'zligini anglaydi. Zotan, demokratiya, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, bunyodkorlik, yaratuvchilik, orzu - umidlar ro'yobi, bularning barcha-barchasi fikr - qarashlar erkinligi, so'z erkinligi bebaho ne'matga, oliy qadriyatga aylandi. Endilikda milliy matbuotimiz tarixi xususan istiqloq davri publitsistikasi matbuotning ma'naviy -ma'rifiy targ'ibotining o'rni va ahamiyati dolzarb mohiyat kasb etmoqda. Shu tariqa ommaviy axborot vositalari mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy ma'rifiy hayotining faol ishtirokchisi, yangilik jarchisi, ezgu ishlar da'vatkori, jamoatchilik fikrining xolis ko'zgusi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, yurt-boshimiz ta'kidlaganidek - "Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatimizga bo'lgan ishonch bizni uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, bizni yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharafdir [6].

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi "gi farmoni / ntp : // Lex . uz / docs / 3107036.
2. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid , barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston 1, 1997.174-b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T; Ma'naviyat. 2008. 13-b.
4. Abduazizova N. Milliy jurnalistika tarixi. (Milliy istiqlol davri). Ikkinchi jild. T; Sharq. 2008. B-338.
5. O'rinova B. O'zbekiston respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritishda matbuotning roli.Monografiya.Buxoro.Buxoro viloyat bosmaxonasi. 2004. B-16-18.
6. Mahkamov O'R. Grajdanskoe obshestvo: liberalizatsiya sretsv massovoy informatsii v kontekste informatsionnoy politiki// Uzbekistan na puti k grajdanskomu obshestvu.T. Sharq. 2003. B-230.
7. Do'stmuhammad X. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. T; O'zbekiston. NMIU, 200. B-4.
8. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda, O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. T. 2021. B-30.



UDK: 94(575.1+470):323/327

Umidjon USAROV,
O'zMU dotsenti v.b, t.f.f.d. (PhD)
E-mail: umidjon.usarov@mail.ru,

Nukus DPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri, t.f.d. Y.A.Abdullayeva taqrizi asosida

SOME REFLECTIONS ON THE SOURCES ON THE HISTORY OF AGRICULTURE OF THE SAMARKAND REGION IN THE SECOND HALF OF THE XIX-EARLY XX CENTURIES

Annotation

This article uses archival documents, reviews of statistical committees and reference materials, as well as the works of Russian oriental historians, geographers, travelers and representatives of other areas, which are sources of that period that provide information about the state of agriculture, the main branch of the economic life of the Samarkand region in second half of the 19th - early 20th centuries. The article also reveals agriculture in the region, in particular, the state of land affairs, the amount of arable land, irrigation work, the cultivation of wheat, rice and cotton, as well as the policy of the imperial government in this regard.

Key words: Zarafshan district, Samarkand region, Russian Empire, colonialism, agriculture, land, water, irrigation agriculture, cotton, wheat, rice, desyatina.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Аннотация

В этой статье использованы архивные документы, обзоры статистических комитетов и материалы справочников, а также труды русских востоковедов-историков, географов, путешественников и представителей других областей, которые являются источниками того периода, дающими информацию о состоянии сельского хозяйства, основной отрасли экономической жизни Самаркандской области во второй половине XIX-начале XX веков. В статье также раскрывается сельское хозяйство в регионе, в частности, состояние земельных дел, объем пахотных земель, ирригационные работы, выращивание пшеницы, риса и хлопка, а также политика имперского правительства в этом отношении.

Ключевые слова: Зарафшанский район, Самаркандская область, Российская империя, колониализм, сельское хозяйство, земля, вода, ирригационное земледелие, хлопок, пшеница, рис, десятина.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI-XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGI TARIXI MANBASHUNOSLIGIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida – XX asr boshlarida Samarqand viloyatining iqtisodiy hayotining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligining holati haqida ma'lumot beruvchi davr manbalari bo'lgan arxiv hujjatlari, statistika qo'mitalari (statistik sharhlar) va ma'lumotnoma-kitoblar materiallari hamda rus sharqshunos-tarixchi, geograf, sayyoh va boshqa sohalar vakillari asarlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, maqolada tahlilga tortilgan manbalar asosida viloyatdagi qishloq xo'jaligi, xususan, yer ishlarining holati, ekin maydonlarining hajmi, sug'orish ishlari, bug'doy, sholi va paxta yetishtirilishi hamda bu boradagi imperiya hukumatining siyosati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Zarafshon okrugi, Samarqand viloyati, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, qishloq xo'jaligi, yer, suv, sug'orma dehqonchilik, paxta, bug'doy, sholi, desyatina.

Kirish. Rossiya imperiyasi tomonidan Zarafshon vohasining yuqori qismidagi bir qancha hududlarini bosib olgandan so'ng, dastlab bu yerda Zarafshon okrugi tashkil etilib, so'ngra 1886-yilda imperiya hukumatining "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra Samarqand viloyati ta'sis etildi. Bu davrda Samarqand viloyatining aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri sug'orma dehqonchilik bo'lib, unda turli xil qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirgan. Viloyatning qishloq xo'jaligi davr manbashunosligi juda boy bo'lib, tadqiqotimizda ularni quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi. Ular qatoriga: 1. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'zMA) fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari ma'lumotlari; 2. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida statistika qo'mitalari va turli ma'lumotnoma-kitoblar materiallari; 3. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida nashr etilgan rus sharqshunos-tarixchi, geograf, sayyoh va boshqa sohalar vakillari asarlarni kiritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Samarqand viloyati bo'lgan qishloq xo'jaligining ahvoli haqida ma'lumot beruvchi

O'zMA (I-1-fond 585, 830-yig'ma jildlari va R-17-fond 871-yig'ma jildlari) hujjatlari, Samarqand viloyati statistika qo'mitalari materiallari(1893), Samarqand viloyatiga oid ma'lumotnoma-kitoblar (Справочная книжка Самаркандской области) materiallari(1894,1897,1899,1907) hamda rus sharqshunos-tarixchi va geograflari N.M. Mayev (1970), L.N. Sobolev (1974), A.I.Shaxnazarov (1908) asarlari kabi manbalar tahlili asosida viloyatning qishloq xo'jaligida sodir bo'lgan o'zgarishlar va imperiya hukumatining bu boradagi agrar siyosati yoritib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi umum qabul qilingan tarixiy metodlar – qiyosiy-statistik va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligida tarixini aks ettiruvchi manbalar o'rganilgan hamda tadqiqot jarayonida ko'plab manbalar ilmiy muomalaga jalb etilgan.

Tahlil va natijalar. XIX asrning ikkinchi yarmida-XX asr boshlarida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi tarixiga oid birinchi guruh manbalarini O'zMA fondlarida saqlanayotgan hujjatlar tashkil etib, ularda Samarqand viloyati

ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xususan, qishloq xo'jaligi xolatini yorituvchi juda ko'p faktologik ma'lumotlarni olish mumkin. Jumladan, O'zMA I-1-fondi 12-ro'yxati 585-yig'majild xujjatlarida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida zahira suv manbayi bo'lmaganligi sababli kech bahor va jazirama yoz oylarida suvni yetkazib berish doimiy muammolardan biri bo'lganligi, bu tabiiyki, rus ma'muriyatni tashvishlantirmasdan qolmas edi. Masalan, 1889-yilda-stats-maslahatchi Lyutsh Turkiston general-gubernatoriga jo'natgan telegrammasida Buxoroga berilayotgan suv kam ekanligini, amirlikdagi paxta ekinlarining qurib borishiga sabab bo'layotganligini yozadi[1]. Shu sababli Buxorodagi Rossiya siyosiy agenti zudlik bilan Buxoroga normadan ko'proq suv berishni, imkon darajada tezroq ekilgan xomashyo qurishining oldini olish lozimligini ta'kidlaydi[2]. Agar o'z vaqtida suv berilmasa, nafaqat amirlik shu bilan birga Rossiya imperiyasi sanoati uchun ham iqtisodiy zarar yetkazishi mumkinligini aytadi. Chunki Buxoro amirligi hududida yetishtirilgan paxtaning asosiy qismi Rossiya imperiyasi markazidagi sanoat korxonalariga uchun sotib olinar edi.

O'zMAning I-1-fondining 2-ro'yxati 830-yig'ma jildi Samarqand viloyati yer masalalari bo'yicha komissiyasi rahbari stats-maslahatchi Nevskiyning o'zlashtirilmagan va lalmi yerlardagi komissiyaning noto'g'ri harakatlari haqida aholining noroziligi bayon etilgan arizalarga nisbatan munosabatlariga oid hujjatlardir[3]. Bu borada komissiya a'zolari viloyatda mahalliy axolining o'zlashtirilmagan va lalmi yerlarga egalik qilish munosabatlari, ulardan foydalanish huquqi va shartlarini to'liq o'rganmagan xolda ish olib borganligi natajasida kelib chiqqan noroziliklar haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Yana bir O'zMAning R-17 – Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi nomli fondi 1-ro'yxatidagi 871-yig'ma jildi hujjatida ham Samarqand viloyati sug'oriladigan yer maydonlari haqida ma'lumot berilgan. Unda yozilishicha, 1917-yil Rossiyadagi siyosiy jarayonlargacha Turkistondagi umumiy sug'oriladigan yerlar 2 400 000 desyatinani tashkil etgan bo'lib, shundan Samarqand viloyatiga 430 000 desyatinasi to'g'ri kelgan. Shuningdek, 1917-yilga kelib Rossiyadagi Oktabr davlat to'ntarishi, fuqarolar urushi, o'lkadagi istiqbolchilik harakatlari, ayni paytda, mablag'larning yetishmasligi natijasida o'lkada sug'oriladigan yerlar 1 180 000 desyatinaga tushib qolgan. Bu Samarqand viloyatiga ham ta'sir etib, viloyatdagi yer maydonlari 205 000 desyatinaga tushib qolganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan[4].

Ikkinchi guruh manbalariga XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida faoliyat yuritgan statistika qo'mitalari materiallari (statistik sharhlar) va turli ma'lumotnoma-kitoblarni qiritish mumkin. Bu turdagi manbalar materiallari Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligi yoritishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu ma'lumotnoma-kitoblarda viloyatning 1898-yilgi qishloq xo'jaligida sholi va bug'doy yetishtirilganligi, bug'doy yetishtirish faqat mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilmay, balki ko'chirib keltirilgan rus aholisi tomonidan ham ekilganligi ta'kidlangan. Biroq ular bug'doy ekishda yer tarkibini bilmaganlar, iqlimni bilmasdan turib, ko'p mablag' sarflab foyda ololmaganligi to'g'risida gap boradi[5].

Yana bir ma'lumotnoma kitobda, M. Virskiy uzoq yillik kuzatuviga ko'ra shunday yozadi: viloyatning lalmi yerlarida yetishtirilgan bug'doydan har yili yetarli darajada sifat jihatidan yuqori bo'lgan hosil olinmagan[6]. Tog'lardan uzoq bo'lgan sug'orilmaydigan yerlarda ekilgan bug'doydan kam hosil olingan. Tog' yonbag'ridagi sug'orilmaydigan lalmi yerlarda, jumladan, Samarqand uyezdining Chashmaob volostida, Xo'jand uyezdining O'ratepa volostida yirik bug'doy yetishtirilgan deb ma'lumot beradi[6].

Bu guruhga kiruvchi manbalarda viloyat hududida mustamlaka ma'muriyati 1872-yildan boshlab paxtachilikni rivojlantirish maqsadida Samarqand va Kattaqo'rg'on

uyezdlarida paxtaning amerika navini ekish boshlangani haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan[7]. Shuningdek, amerika paxta navining ustunligiga qaramay kam xarj mahalliy paxta navi 1894-yilga qadar ham mahalliy aholi tomonidan viloyatda ekib kelingan. Masalan, Samarqand viloyatining umumiy paxta maydonlarining 26 % ida mahalliy paxta navi ekilgan. Bu Samarqand uyezdida 17 % atrofida bo'lgan, Kattaqo'rg'on uyezdida 28 % dan ortiqroqni tashkil qilgan bo'lsa, Xo'jand uyezdida 32 % ga, Jizzax uyezdida esa 75%ga to'g'ri kelgan[8].

Ma'lumotnoma-kitoblarda keltirilishicha, 1896-yilda Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer maydonlar umumiy 282955 desyatinani tashkil etib, shundan 18144 desyatina yerga paxta ekilgan. Viloyatdan paxtaning amerika navi 11146 desyatina va mahalliy paxta navi 6998 desyatina yer maydoniga ekilganligi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, bu davrda viloyatning barcha yerlarining atigi 4,1 % igina sun'iy sug'oriladigan yerlarni tashkil etib, 6,4 % i mahalliy aholi tomonidan paxta uchun qayta ishlanganligi ta'kidlab o'tilgan[8].

Yana bir manbada Samarqand viloyati statistika qo'mitasi bosh kotibi M. Virskiy viloyatning statistik sarhlarida bu hududning sug'orish tizimiga oid fikrlarini quyidagicha: "Samarqand viloyati yuqori Zarafshon va uning irmog'lari atroflaridagi hududlarida joylashgan bo'lib, bu hududda 6828 desyatina o'zlashtirilgan yerlar, ko'p jihatdan sun'iy sug'orilishga moslashtirilgan va bu yerlar mahalliy aholining asrlar davomida tinimsiz va mashshaqatli mehnati evaziga yaratilgan"[9] deb ta'kidlab o'tadi.

Uchinchi guruh manbalariga Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida chop etilgan rus sharqshunos-tarixchi, geograf, sayyoh va boshqa sohalar vakillari tomonidan yaratilgan bir qator asarlarida Samarqand viloyati iqtisodiy hayoti asosini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi, sug'orma dehqonchik va sug'orish tarmoqlari manbalariga to'g'risida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, N.M. Mayev o'zining "От Ташкента до Катти – Кургана" nomli maqolasida esa, yuqori Zarafshon vohasi joylashgan Samarqand hududi haqida quyidagicha baho beradi: "Bu daryo atrofida yashagan xalqlar uning suvidan o'z yerlari sug'orishda keng foydalanishgan. Samarqand kiraverishdagi Cho'ponota tepaligidagi Kattaqo'rg'ongacha bo'lgan yo'lining ikki tomoni yaxshi sug'orilgan yerlar bo'lib, ko'm-ko'k rangga burkangandir. Zarafshon vodiysining yuqori qismi yerlari serhosil bo'lib, suv bilan yaxshi ta'minlanganligi ko'rinib turardi"[10]. Bundan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jihatdan katta potentsialga ega bo'lgan bu hududni o'z tasarrufida ushlab turish uchun doimiy ravishda tashqi davlatlarning qiziqishi baland bo'lgan.

Yana bir rus tadqiqotchisi L.N. Sobolev Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirigidan ajratib olgan hududi Zarafshon okrugini o'rganib, uning tabiiy iqlim sharoiti, hududi, tumanlari, ekin maydonlari, suv inshootlari, suv taqsimlash tartibi, okrug qishloqlari, aholisi, turmush tarzi kabi masalalarni tadqiq etadi. Muallif o'z asarida Zarafshon okrugidagi "vaqf" yerlariga alohida to'xtalib o'tgan[11].

Bu davrda yaratilgan yana bir manba A.I. Shaxnazarov boshchiligidagi tuzilgan "Сельское хозяйство в Туркестанском крае" nomli to'plam bo'lib, muallif asarida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligiga doir ko'plab ma'lumotlarni berib o'tgan. Jumladan, Turkiston o'lkasida sun'iy sug'oriladigan yerlar maydoni 1874900 desyatinani tashkil etgan bo'lsa, shundan Samarqand viloyatiga 401200 desyatina yer maydoni to'g'ri kelganligini ta'kidlab o'tdi[12]. Shuningdek, muallif viloyatda bog'dorchilik, ayniqsa, uzumchilik ancha yaxshi rivojlangan bo'lib, yiliga 5197000 pud mahsulot yetishtirilganligi haqida ma'lumot berilgan[12].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasining mustamlakachi davri qishloq

xo'jaligiga oid ma'lumotlarni ko'plab davr manbalarida uchratishimiz mumkin. Bu manbalar hususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linib, ulardagi ma'lumotlar tahlili viloyat qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Xususan, O'zMA xujjatlaridagi ma'lumotlar ko'proq imperiya ma'muriyatini Samarqand viloyatida olib borgan agrar siyosatining mohiyatini ochib berishga yordam bersa, bu davrga oid statistika qo'mitalari va turli ma'lumotnoma-kitoblar materiallarida esa, viloyat qishloq xo'jaligida sug'orma dehqonchilikning ahvoli yetishtirgan mahsulotlar turlari, hajmi

va holati kabi masalarlar yuzasidan boy faktologik ma'lumotlar olish mumkin. Shuningdek, Rossiya imperiyasi mustamlakachik davrida chop etilgan rus sharqshunos olimlari asarlarda viloyat qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan sohalari, iqlimi, dehqonchilik qilish uchun mavjud tabiiy sharoiti va shu bilan birga imperiya hukumatinig viloyatning qishloq xo'jaligini o'z mafaatlariga moslashtirishga oid siyosatini aks etgan ma'lumotlar mavjud. Bu manbalarni o'rganish va tahlili natijasida Samarqand viloyati qishloq xo'jaligiga o'sha davr xolati bo'chida atroflicha mulumotlarga ega bo'lish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zMA, I-1-fond, 12-ro'yxat, 585-yig'majild, 1-varaq.
2. O'zMA, I-1-fond, 12-ro'yxat, 585-yig'majild, 8-varaq.
3. O'zMA, I-1-fond, 2-ro'yxat, 830-yig'majild, 1-2-varaqlar.
4. O'zMA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 871-yig'majild, 19-varaq.
5. Справочная книжка Самаркандской области. 1898. – Самарканд: Типография. Селорова К.М, 1899. – С. 300.
6. Вирский М. Зерновые хлеба Самаркандского уезда / Справочная книжка Самаркандской области. 1898. – Самарканд: Типография. Селорова К.М, 1899. – С. 260-261.
7. Вирский М. Хлопководство // Справочная книжка Самаркандской области на 1894 г. Обзорь хлопководства за 1892 г. Вып. 2. – Самарканд, 1894. – С. 2.
8. Вирский М. Хлопководство и хлопковая промышленность в Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. 1897. / Под ред. секретаря статистического комитета М. Вирского. Вып. 5. –Самарканд: Типогр. Самаркандскаго областнаго правления, 1897. – С. 64-79.
9. Вирский Н.М. Виноградарство в Самаркандском уезд. Самаркандскаго областного Статистического Комитета. – Самарканд. 1893. –С. 7-8.
10. Маевъ Н.М. От Ташкента до Катты-Кургана // Ткукестанская сборник. –СПб, 1870. Т. 34. –С. 198-219.
11. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зарафшанском округе // Записки Русского географического общества. Т. IV. – СПб., 1874. – 561 с.
12. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – СПб.: Типогр. В.Е. Киршбауна, 1908. – С. 87-240.



Baxtiyor XALMURATOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: baxtiyorm@mail.ru

O'zMU katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.N.Narziyev taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN ETNOEKOLOGIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida ekologiya yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar fanlararo yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Maqolada asosiy e'tibor istiqol davrida mamlakatimizda ekologiya sohasidagi davlat siyosatining ilmiy asoslari tahlil qilinib, sohaga doir muammolarni etnoekologik jihatdan yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, O'zbekiston Respublikasi, ekologiya, etnoekologiya, "Avesto", islom dini, tabiatni asrab-avaylash, yer, suv, havo, olov, tuproq, ekologik muammolar, urf-odat, marosimlar.

АНАЛИЗ ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье исследования, проведенные в области экологии в годы независимости Узбекистана, проанализированы на основе междисциплинарных подходов. Основное внимание в статье уделяется анализу научных основ государственной политики в области экологии в нашей стране в период независимости, и показательно, что она направлена на освещение проблем, связанных с этой областью, с этно-экологической точки зрения.

Ключевые слова: Независимость, Республика Узбекистан, экология, этноэкология, «Авеста», ислам, охрана природы, земля, вода, воздух, огонь, почва, экологические проблемы, традиции, обряды.

ANALYSIS OF ETHNOECOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

In this article, the research conducted in the field of ecology in the years of independence in Uzbekistan is analyzed based on interdisciplinary approaches. The main focus of the article is the analysis of the scientific foundations of the state policy in the field of ecology in our country during the period of independence, and it is significant that it aims to illuminate the problems related to the field from an ethno-ecological point of view.

Key words: Independence, the Republic of Uzbekistan, ecology, ethnoecology, "Avesta", Islam, nature conservation, land, water, air, fire, soil, ecological problems, traditions, rituals.

Kirish. XX asr davomida etnologiya fanida boy empirik va nazariy materiallar to'plandi. O'tgan asrning birinchi yarmida bajarilgan akademik tadqiqotlarda ko'proq o'tmishga aylanayotgan an'anaviy urf-odatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olishga diqqat e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fandagi mavjud vaziyat butkul o'zgaradi va etnografik materiallarning amaliy ahamiyati oshdi. Hozirda etnologiya fanidan nafaqat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechish, balki kommunikatsiya tizimi, xalqaro savdo, diplomatiya va boshqa qator sohalarida ham foydalanilmoqda.

Ma'lumki, ekologiya va tabiatni asrab-avaylash nafaqat hozirgi kunda, shu bilan birga qadimdan muhim ahamiyatga bo'lib kelgan. Bu borada dunyoning yirik olimlari bir qator kompleks tadqiqotlar olib borib, ularda o'zlarining ilmiy qarashlari bayon qilib, jahon mamlakatlari rahbarlarini bo'lajak xavflardan ozgina bo'lsa ham ogohlantirib kelmoqdalar. Lekin, ming afsuski, ushbu ogohlantirishlarga qaramasdan, jahon mamlakatlarida ekologik muammolarning salmog'i oshsa, oshib bormoqdaki, aslo kamaygani yo'q.

Afsuski, oxirgi yuz yillikda aynan mintaqaning ekologik tizimiga katta zarar yetkazildi. Ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an'anaviy odob-axloq qoidalari ancha-muncha unutilib yuborilgan edi. Ushbu qoidalarga ko'ra, suv va yerni o'ylamay-netmay bulg'ash, isrof qilish gunohi azim hisoblangan. Markaziy Osiyo halqlari islomdan oldingi madaniyatining tabiatdan oqilona, uyg'un

foydalanish an'alarini o'rganish va ommalashtirish zarurligini alohida ta'kidlashimiz joiz"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekistonda ham jamiyat hayotidagi tub burilishlar va milliy tafakkuridagi o'zgarishlar tufayli o'zbek xalqi etnologiyasiga qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu borada milliy davlatchilikning mahalliy boshqaruv usullari, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi kabi muhim muammolar bilan birga an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, tarixiy-etnografik mintaqalar etnografiyasi hamda turli hududlarga xos etnolokal an'analarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda[2]. Qolaversa, ushbu sohada bajarilayotgan tadqiqotlar ham ko'lam, ham mazmun-mohiyat jihatidan boyib borishining asosiy sabablaridan biri – bu mustaqillik yillarida o'tmish tarix va milliy qadriyatlar hamda an'analarga bo'lgan qiziqishning keskin ortganligidan, deb qayd etish mumkin.

Tan olish kerakki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida etnoekologiya sohasidagi tadqiqotlar asosan, ekologiya yo'nalishida olib borilganligi uchun xalqimizning azaliy qadriyatlari sirasiga kiruvchi tabiatni asrab-avaylashga doir qarashlarining etnoekologik jihatlarini ilmiy izlanuvchilarning e'tiboridan chetda qolib ketgan edi. Lekin, ekologiya yo'nalishida olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarda ham qisman bo'lsa-da, o'zbek xalqining etnoekologik qarashlari aks etganligini quvonarli holat deb baholash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada xronologik, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, semantik-semiotik nazariya, kuzatish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiq qilinayotgan muammo maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, ko'plab asar va maqolalarda masalaning u yoki bu jihatlari ma'lum darajada yoritilgan. Shuning uchun yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda mustaqillik yillarida O'zbekistonda ekologiya sohasidagi tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Aniq va tabiiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar [3].

2. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar [4].

3. Pedagogik, falsafiy va huquqiy ahamiyatga molik nashrlar [5].

4. Tarixiy va etnografik yo'nalishdagi tadqiqotlar [6].

Mustaqillik yillarida yaratilgan ekologik madaniyat muammolariga oid tadqiqotlarning ham salmog'i borgan sari oshib bormoqda. Shu boisdan ushbu davrdagi ilmiy nashrlar alohida turkumni tashkil etadi. Mazkur turkumdagi adabiyotlar kommunistik mafkuradan xoli, yangicha nuqtai nazardan yaratilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu guruhga kiruvchi adabiyotlarga U. Abdullayev, M. Jo'rayev, A. Musaqulov, Sh. Otaboyev va Z. Hidoyatova kabi olimlarning asarlarini kiritish mumkin. Ushbu asarlarda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim jihatlari yoritilgan.

U.S. Abdullayevning tadqiqotlarida Farg'ona vodiysidagi etnoslararo aloqalar XIX asr oxiri – XX asr doirasida mukammal yoritilgan. Shu bilan birga muallif u yoki bu etnosning turmush tarzini yoritishda o'rganilayotgan muammoga doir ma'lumotlarni ham keltirgan bo'lsa [7], M. Jo'rayev [8] asarlarida ham tadqiqotning ayrim o'rinlarida muammoning u yoki bu qirralarini yoritishda foydalanildi. Qolgan mualliflarning asarlari ham o'rganilayotgan muammo uchun muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularda vodiy o'zbeklarining an'anaviy ekologik madaniyatiga oid ma'lumotlar juda kam o'rin olgan.

U.H. Qoraboyev ekologik madaniyatga keng qamrovli, o'zining ichki tizimlari, funksional xususiyatlariga ega murakkab ijtimoiy voqeyelik sifatida tarixiy-madaniy yondashuvni boshlab bergan. U ekologik madaniyatni an'anaviy va

zamonaviy ko'rinishlarga bo'lib, "Madaniyatning negizini xalq an'anaviy madaniyatini tashkil etadi. Etnomadaniyatni anglash xalq an'anaviy madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi, umuman, etnomadaniyat o'zida dunyo xalqlari madaniyati, umuminsoniy madaniy qadriyatlar va ma'lum bir mintaqalar yoki etnoslar haqidagi tasavvurlarni mujassam etadi", deya qayd etgan. Olim ushbu yondashuvdan kelib chiqqan holda, xalq madaniyatini marosim-bayramlar, an'anaviy o'yinlar, xalq hordiq chiqarishi, xalq tabobati, ijodiyoti va pedagogikasi (etnopedagogika), xalq amaliy san'ati, milliy liboslar va kiyinish, ekologik va xalq maishiy madaniyatlariga ajratgan holda ularning ekologik omillarini e'tibordan chetda qoldirmagan [9].

Keyingi yillarda o'zbekistonlik faylasuflar tomonidan ijtimoiy ekologiya yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ham salmog'i ortib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarda inson va atrof-muhitni asrash madaniyatining falsafiy jihatlari hamda ijtimoiy ekologiya muammolariga doir yangi ilmiy g'oyalarni olib kirdi. Chunonchi, bu borada faylasuflar – B. Ziyomuhammedov, T. Qo'z'yuliyev, S. Mamashokirov, D. Rasilov, R. Mamatqulov va U. Saidova hamda N. Nishonovlarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ushbu olimlar ekologik madaniyat muammosining falsafiy mohiyati va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridagi o'rni hamda ahamiyati kabi masalalarni tadqiq qilganlar [10]. Shu nuqtai nazardan olganda, moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlarini o'zida aks ettirgan qo'yidagi ta'rif e'tiborga loyiqdir.

Xulosa va takliflar. Muammoning o'rganilish darajasini ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mavjud manbalar va adabiyotlar mualliflari dehqonchilik urf-odatlarini va marosimlari haqida ba'zi bir etnografik ma'lumotlarni bergan bo'lsalar-da, lekin ularning ishlarida biz o'rganayotgan masala maxsus yoritilmagan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston etnologiyasida xalq ekologik madaniyatini ilmiy-nazariy asosda o'rganish hamda buyuk allomalarning ilmiy merosiga qaytish bilan bog'liq uzviy jarayon bo'lsa, bir tarafdin globallashuv jarayonlari oqibatida shiddat bilan kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolmasdan, xalq ekologik madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq aniq maqsad belgilab olingan.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 131.
2. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001.; Хўжаев А. Халқимиз ўтмиши қадимги манбаларда. – Тошкент, 2001.; Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент, 2007.; Арифхонова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли г. Ташкента. – Ташкент, 2000.; Современные этнокультурные процессы в махаллях Ташкента. – Ташкент, 2005.; Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнологияси. – Тошкент, 2020.
3. Аденбаев Б.Е. Куйи Амударёнинг гидрологик режими ва сув билан таъминланганлигининг ҳозирги ҳолати. География фан. бўй. фал. докт (PhD) дисс. – Тошкент, 2020;
4. Джуракулова Г.Ш. Ўзбек халқ дostonларида от образи билан боғлиқ эпик формулалар ва уларнинг бадийати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021; Нарзуллаева Д.С. Ўзбек фольклориди "момо" култи (генезиси ва поэтикаси). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2022; Низомова Ш.Ш. Замоновий шеърятда сув ва олов образларининг рамзий-тимсолий талқинлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2022.
5. Абдузимова З.А. Глобаллашув жараёнида экологик ахлоқни шакллантиришга концептуал ёндашув. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021;
6. Алламберганов Ш.Й. Ўзбекистонда атроф-муҳит муҳофазаси тарихи (1991–2018-йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Урганч, 2019;
7. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 215 б.
8. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – 291 б.
9. Карабаев У. Этнокультура: (Традиционная народная культура): Учеб. пособие. – Ташкент, 2005. – С. 5.
10. Зиёмухамедов Б. Экология ва маънавият. – Тошкент: Мехнат, 1997. – 101 б.;